



UDK: 94:908.396

Asxat BIYKUZIYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchisi

TDSHU professori, tarix fanlari doktori S.Shadmanova taqrizi asosida

THE SOCIO-ECONOMIC AND POLITICAL SITUATION IN JAPAN BEFORE THE RISE OF THE SAMURAI CLASS

Annotation

In the early Middle Ages, the Japanese islands did not exist as a single political entity. On the islands of Hokkaido and Honshu, there was a constant struggle with the native population of non-Mongolic races - ayn (meaning bear) or emisi. For centuries, Japanese inhabitants pushed them out to the north and occupied their lands. In the early Middle Ages, Japan had a reverent eye on the Tang Dynasty, the most powerful state in the Far East at that time.

Key words: Nara, Heian dziday, Yamabe Shinno Kammu, Fudziwara-no Tanetsugu, "sessō," "kampaku," "kokushi."

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И ПОЛИТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В ЯПОНИИ ДО ВОЗНИКНОВЕНИЯ САМУРАЙСКОГО СОСЛОВИЯ

Аннотация

В раннем средневековье японские острова не существовали в форме единого политического объединения. На островах Хокайдо и Хонсю велись постоянная борьба с местным населением, не принадлежавшим к монголоидной расе, - айном (в переводе медведем) или эмиссией. На протяжении веков население Японии вытесняло их на север и захватывало их земли. В раннем средневековье Япония с благоговением смотрела на самую могущественную тогда на Дальнем Востоке империю Тан.

Ключевые слова: Нара, хэйань дзидай, Ямабе Синно Камму, Фудзивара-но Танецуку, "сессё," "кампаку," "кокуси."

SAMURAYLAR TABAQASI YUZAGA KELGUNIGA QADAR YAPONIYADAGI IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYOSIY VAZIYAT

Annotatsiya

Ilk o'rta asrlarda Yaponiya orollari yaxlit siyosiy birlashma shaklida bo'limgan. Kokaydo va Xonsyu orollarida mongoloid irqidan bo'limgan mahalliy aholi – ayn (tarjimasi ayiq) yoki emisilar bilan doimiy kurash olib borilgan. Asrlar davomida Yaponiya aholisi ularni shimalga siqib chiqarib borgan va ularning yerlarini egallab olgan. Ilk o'rta asrlarda Uzoq Sharqda o'sha zamonning eng qudratli davlati bo'lgan Tan imperiyasiga Yaponiya ixlos bilan nazar tashlagan.

Kalit so'zlar: Nara, xeyan dziday, Yamabe Sinno Kammu, Fudzivara-no Tanetsugu, "sessyo", "kampaku", "kokusi".

Kirish. Yaponiya tarixida Xeyan davri 794-1185-yillarni o'z ichiga oladi. Xeyan (yoki xeyan dziday) so'zi "tinchlik" yoki "barqarorlik" degan ma'noni bildiradi. Bu davrda Yaponianing poytaxti Nara shahri bo'lgan. Mamlakatda 1500 dan ortiq buddaviylik ibodatxonalarini va 400 ta sintoistik muqaddas qadamjolar ham mayjud bo'lgan. Dastlab imperator Yamabe Sinno Kammu (781-806) poytaxt sifatida mamlakat uchun Nagaokakyo shahrini tanlaydi. Yamasira viloyatidagi yangi shahar zodogon Fudzivara-no Tanetsugu tomonidan barpo etila boshlaydi. Shahar qurilib bitishi bilan imperatorning kichik ukasi Savara uni o'ladiradi. Imperator buning uchun o'z ukasini jazolagan (surgunda ochlikdan vafot etgan). Shahar esa unutilib ketilgan. Garchand bu shaharni qurishda o'n yil davomida bir necha yuz ming kishi mehnat qilgan bo'lsada, mamlakat poytaxti sifatida 784-yildan 794-yilga qadar yuksalgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Imperator yangi poytaxt Xeyankyo (tinchlik va osoyishtalik) shahrini qurdirdi. Ushbu shahar bo'lajak Kiotoning ilk nomi edi. Mamlakat iqtisodiy markazini eski poytaxtdan ko'chirish ehtiyoji paydo bo'lgan edi. Hukumat ayonlari bunga qarshi chiqqan bo'lsada, imperatorni qo'llab-quvvatlashga majbur edilar. Hukmdorning oilasiga kelsak, Kammuning 16 ta katta va kichik xotinlari hamda 32 ta farzandi bo'lgan. Kelajakda uning farzandlaridan tarqalgan urug'lar samuray qavmlariga ham asos bo'lgan.

Aynan IX asrga kelib Yaponiyada samuraylar tabaqasi kurtak ota boshlagan. Fudzivaralar imperator taxtiga ta'sir o'tkazan eng kuchli samuray qavmlari hisoblangan. Yaponiyada 857-yili Fudzivalardan Yosifusa imperator oilasiga mansub bo'lmasada, bosh vazir unvoniga erishgan. U o'z ukasi Fudzivara Yosimini (o'ng vazir) hukumat boshlig'i lavozimiga tayinlab, o'zi imperator nomidan farmonlar chiqargan. Shu tariqa ushbu urug' imperatorlarga qiz uzatadigan bo'lib qoldi. Kelajakda samuraylar urug'larining yirik vakillari bo'lib, hatto o'zlarining gerbi "mon"ga ega bo'lgan. Qonuniy hukmdor ushbu oila vakillarining farzandlari bo'lishi kerak edi. Shu bilan Fudzivaralar suololasining uzoq muddati hokimiyyati davri boshlangan.

Fudzivaralar X asrga kelib imperatorlarga to'g'ridan to'g'ri ta'sir o'tkaza boshlaydi. Yaponiyada siyosiy boshqaruv tizimi Xitoynikiga o'xshash bo'lgan. Yaponiyada fuqarolar "ryo", Yaponiya qonunchiligi esa "Kolxu" yoki "Ruydzy-Sandeykyaku" deb atalgan. Ushbu qonunlar 3300 ga yaqin moddadan iborat bo'lib, bunda samuray va oddiy dehqonlarning hayot tarzi ham o'z aksini topgan, davlat boshqaruv mexanizmi ifodalangan. Agar imperator yosh bo'lsa, regentga "sessyo" nomi berilgan, yoshi katta bo'lsa, "kampaku" deb atalgan. Bundan tashqari, hukumatdagi vazirlar asosan 2 ga: o'ng va so'l vazirlarga bo'lingan. Har ikkisining mahkamasi alohida-alohida faoliyat ko'rsatgan. Viloyat hokimlari (noiblar), "kokusi" deb atalgan. Viloyatlardagi soliqlar aynan ular tomonidan yig'ib olingan.

Odatda taftishchilarni Yaponiyada “dzuryo” deb atashgan. Mamlakatda yer solig‘i “myo” deb nomlangan. Davlat qullari daromadlari ustidan nazorat “kannudzukasa” boshqarmasi tonomidan amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asosini obyektivlik va tarixiylik prinsipi, fenomenologik va germenevistik yondashuvlar, tizimlashtirish usullari tashkil etadi. Shuningdek, maqlodagi ma'lumotlarni tahlil etishda statistik usuldan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Umuman Fudzivaralar davrida davlat yerlari bir umrlik mulk sifatida tarqatilgan. Oqibatda zodagonlar, buddaviy ruhoniylar (ibodatxona) ulkan mulklarga ega bo‘lgan. Bunday yerlar “syoen” deb atalgan. Bu yerlar ularga egalik qilayotganlarga katta daromat keltirar edi. Oddiy zirotatchi dahqonlarning iqtisodiy holati achinarli bo‘lib qolavergan.

Oqibatda oldin imperator Kotoku (645-650) davrida “Tayka” shiori ostida amalga oshirilgan islohotlar yo‘qqqa chiqqan. Bu esa mamlakatda yirik zamindorlar paydo bo‘lishiga olib kelgan. Ularning mulklerini himoya qilish o‘n yollanma o‘ziga dehqonlar askarlar xizmatini o‘tay boshlashgan. Mulk otadan bolaga meros sifatida o‘tgan. Dehqonlar har besh yil davomida davlatdan yer ijara berilmay, davlat yerlari hukmdor sinf qo‘lida to‘plana boshlagan.

Xeyan davrida askarlikka rekrut tizimi (gundan xeyesey) asosida harbiy xizmatga olinar edi. Ularni ro‘yxatga olish zodagonlar honadonida tuzilgan kitob asosida amalga oshirilgan. Har bir viloyat mingta askar berishi kerak edi. Bu davrda Yaponiyada 60 ta viloyat mavjud bo‘lgan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad Xitoya hokimiyat tepasidagi Tan imperiyasiga qarshi turish hamda Koreyadagi savdo-iqtisodiy ta’sirni boy bermaslik edi.

IX-X asrlarda sharqiy viloyatlarda yirik qaroqchilar guruhlari paydo bo‘ldi. Tayra Masakado isyonini bunga misol bo‘la oladi. U 931-yilga qadar imperator Sudzakuning regenti va Buyuk vaziri (daydzyo-daydzin) Fudzivara Tadaxirani xizmatida bo‘lgan. So‘ng’ra Kanto viloyatiga jo‘nab ketgan. Tayra Masakado ushbu viloyatda ichki feodal urushlarga va fitnalarga aralashib qoladi.

So‘ng’ra u imperatorning iqtisodiy siyosatiga qarshi chiqib, 935-yil Kavava yonidagi jangda hukumat qo‘sishinlarini mag‘lubiyatga uchratadi. Ammo bu muvaffaqiyat uzoqqa cho‘zilmadi. Isyonni bostirish uchun imperator samuraylar qavmlariga murojat qiladi. Bu chaqiriqqa Tayra Masakadoning dushmani Tayra Sadamori va Fudzivara Xidesatolar javob beradi. Samuraylar qo‘smini 940-yil Kavaguchi jangida isyonchilarни tor-mor qilgach, bundan keyingi hal qiluvchi jang Kitayama yoki Kodzima yonida bo‘lib o‘tadi. Bu jang Tayra Masakadoning mag‘lubiyati va uning halok bo‘lishi bilan tugaydi. Xarbiy xonadonlar ustunlikka (buke) erishgan. Shundan boshlab samuraylar siyosiy maydonda chiqqa boshlagan. Isyonchilar va ularni yengganlar ham bukedan chiqqan edi. Yaponiya tarixida Tayra Masakadoni “Birinchi samuray” sifatida ham tilga olinadi.

Isyonni bostirishda samuraylar qatlami o‘zini ko‘rsata olganligi tufayli davlat ishlariga ta’sir o‘tkaza oladigan bo‘ldi. Viloyat hokimlarida esa, qaroqchilarga qarshi doimiy qo‘singa ega bo‘lish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Ilgari “Dadzyokan” dan ruxsatnoma olib, maxsus vazifani bajarish uchun (Xappey Tyokufu) alohida askarlar yollanar edi. Endi “Suybu Kashpu” hujjati asosida viloyat hokimi doimiy xarbiy qismalarni uzoq vaqt ta’minlab turish uchun yollash mumkinligini qonuniylashtirib qo‘ygan. Aynan ular samuraylikni ilk ko‘rinishlari bo‘lgan.

Yaponiyada X-XI asrlarda dehqonlarni markaziy hokimiyat askarlikka chaqirmay qo‘yadi. Dastlab samuraylar “suvamono” deb atalgan. Yaponiyadagi “Tayxo rituryo” qonuni bo‘yicha dastlab samuraylar qariyalarga hizmat

qiluvchi vazifasini bajargan. Keyinchalik jangchi –“busi” tushunchasi yuzaga kelgan. Ilgari samuray boy dehqonlardan kelib chiqqan degan tushuncha keng tarqalgan edi. Ammo uning tarkibida o‘rtta va kichik qatlaman chiqqan zodagonlar ham bo‘lgan. Emisiylar bilan va qaroqchilar bilan bo‘lgan doimiy kurash kelajakda yangi ijtimoiy qatlamiyu yuzga keltirdi. Samuraylar tarkibiga qochoq qullar, ovchilar, baliqchilar, jamiyatidan ajralib chiqqan ma’lum bir guruhlar ham qo‘silib ketgan. Buddizm mafkurasi bunga yo‘l ochgan. Ilk samuraylar zodagonlarga xizmat qilishgan (guruch bilan to‘lanadigan “koku” evaziga) yoki imperator saroyini (takiguti-no musya) mudofaa qilgan.

Ularning asosiy qurollari uzun kamon va paykon (o‘qoy) bo‘lgan. Ko‘philigi oqliqlarni tashkil etgan. Ot ustidan o‘q uzish “Yabusame” deb atalgan. Samuraylar saroy unvonlaridan to‘rtinchi rangi darajasigacha ko‘tarilishi mumkin edi. Oqibatda harbiy oilalar paydo bo‘la boshlagan. Zodagonlarning ajralgan guruhlari samuraylar qavmlarini yuzaga keltirdi, ayrimlari imperator xonadoniga ham mansub bo‘lgan. Misol uchun, imperetor Saga (809-823 yy) xonadonida 50 ta farzand bo‘lgan. Aksariyati noqonuniy kanizaklardan tug‘ilgan va “Minamoto-no ason” unvonini olib, qon asosidagi qondosh shahzoda maqomlaridan mahrum etilgan. Imperator Nimmyo, Montoku, Seyvalar ham noqonuniy farzandlarini saroydan chiqarib yuborgan. Imperator Kamunning bolalari “Tayro-no ason” unvonini bilan quvib yuborilgan. Ushbu urug‘lar atrofida samuraylar birlashgan.

Xeyan davrida Xonsyu orolini shimolini zabit etish jarayoni kuchaya bordi. Emisilar (mahalliy aynlar) doimiy kurash olib borgan. 789-yili Subuse yonida imperator qo‘sishinlari aynlardan mag‘lub bo‘lgan. Imperator harbiy sarkarda Sakanoue Tamuramaroni qo‘mondon etib tayinladi. 796-yili lashkarboshi Mis-u-no Kami, Mis-u Adzeti va Tindzu “syogun” unvonini olgan. Lekin rasman 797-yili esa “seyi taysyogun” (varvarlarni buysundiruvchi buyuk sarkarda) unvonini olgan. Sakanoue Tamuramaro bir necha xarbiy yurishlarni amalga oshirgan. Emisi yerlerida Isabe-no dzyo Siba-dzyo qal’alarini qurdirgan. Ayrim emissilar bo‘ysundirilgan. Yaponiyada ularni “Fusyu”deb atashgan.

Fudzivara Osugu 804-yil imperator Kammudan emissilarga qarshi harbiy kompaniyani to‘xtatishni so‘raydi. Bu urush xalqqa qiyinchilik keltirayotganini ta’kidlagan. Imperator maslahatchilar bilan kelishib urushni to‘xtatgan. Chegara chiziqlari belgilangan. Ular hozirgi “Ivate” va “Akita” prefikturalarining markazidan o‘tgan edi. Chegarani qo‘riqlash uchun esa samuraylardan foydalaniilgan. 1051-yili Yaponianing shimolida Osyu viloyatida tarixda “12-yillik urush” nomini olgan ilk urushlar boshlanadi. Yirik samuraylar urug‘i Abe markaziy hokimiyat bilan kurash boshladi.

Yaponiya tarixida bu ziddiyat “Osyu dzyuniney kassen” yoki “Dzenkunen-no eki” deb nom olgan. Ushbu urug‘ Missu viloyatini imperator nomidan deyarli mustaqil tarzda boshqarib kelgan. Abe urug‘i kelib chiqishi emissilardan (Ayn) lardan bo‘lgan. XI asr o‘rtalarida qaysi urug‘i imperator g‘aznasiga boj to‘lamay qo‘ydi. 1051-yili imperator buyrug‘i bilan Muk-u viloyati hokimi Fudzivara-no Naritoo qo‘sish bilan Abelar ustiga yurish qildi. Onikiribe jangida mag‘lub bo‘ldi. Musu viloyati hokimi etib, Minamoto Yoriyosi tayinlanadi. Uning kelib chiqishi Seyva Gendzi qavmiga mansub edi. Yoriyosi ham kuchli lashkarboshi bo‘lishiga qaramay, tez muvaffaqiyatga erisha olmadidi. Kinomi yonidagi jangda Abe-no Sadato dan mag‘lub bo‘ldi. Minamoto Yoriyosi 1062-yildagina o‘z samuraylari bilan Yaponiyadagi harbiy kompaniyani o‘z foydasiga hal qila boshladi.

Minamoto Yoriyosi Deva viloyatidan chiqqan Kiyoxara urug‘iga tayaniib, Abelarning Kuriyagava-no Sak-u va Udoto-no Sak-u qal’alarini egalladi. Ko‘p o‘tmay Abe-no

Sadatoo ham asr olinib qatl etildi. Shu tariqa o'n ikki yillik urush tugadi. Shimoliy Yaponiyadagi hududni nazorat qilish Kiyoxara samuraylari qavmi ixtiyoriga o'tdi. Xeyan davrida samuraylik buddizm bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Yaponiya buddaviylikka asoslanib, ular dunyoni yaratilishini uch davrga bo'lib o'rgangan. Buddaviylik ta'limotida "Uch davr" tushunchasi Xitoydan kirib kelgan. Birinchi davri "syobo"(To'g'ri davr) Sidxardxa Shakyamuni Nirvanaga kiranidan keyin 500-yillikni o'z ichiga oladi. Ikkinchisi "dzobo" (Qonun ko'rinishidagi) davr. Uchinchisi "Qonunning tugashi" davri "Eysyo"ning 7- yiliga (1052-yil) to'g'ri kelishi belgilangan edi . O'rtahol va kambag'al dehqonlar buddaviy bo'lgan. Tenday ham buddizm maktabiga Saytyo ismli rohib asos solgan. U Xitoya sayohat qilgan. Bu yerda u Tyan Tay maktabini ziyyorat qilib, milufar sutralarni Yaponiyaga olib o'xshatiladi. Hatto imperatorlar tayinlanishida ham urf odatlar

Barcha tirik mavjudotlar budda ilohiy nurini o'zida mujassamlashtirgan va o'zini qutqarishi mumkin. Buddalar va badxisatvalar doimiy mehnat qilgan, insonlarni qutqarishga intilgan. Falsafa va meditatsiya qutqarilishning ikki qanotiga o'xshatiladi. Hatto imperatorlar tayinlanishida ham urf odatlar

qonun darajasidagi kuchga ega bo'lgan.Rohib Saytyo Kiotodan shimoliy sharqdagi Enryaku Dzi ibodatxonasini quradi. XII asrda borib ibodatxonani 3000 ga yaqin binolari bo'lib, o'z xarbiy raqiblar qo'shiniga ham ega edi.

Yana bir rohib Kukay ("Kobo daysi" – buyuk ustoz) bo'lib, 804-yil Chanyanda bo'lib, u yerda Xueygo ismli rohibning huzurida ta'lim olgan. "Singon" ta'limotini olg'a surgan. Uning tariqati ichida Buddani tana bilan his qilish mumkin, deb ta'riflagan. 806-yili Kukay Kongodu Dzi ibodatxonasini Osakadan uncha uzoqda bo'lмаган Koya san tog'ida quradi. Bu esa buddizmnинг turli xil mazhablari Yaponiyaga kirib kelishi yanada kuchayishiga olib kelgan.

Xulosa. Yuqorida fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Yaponiyada samuraylik tabaqasi vujudga kelguniga qadar mamlakatda o'rtaxol dehqonlar ahamiyati osha boshlagan va borgan sari ularning o'mini boshqa ijtimoiy qatlam – samuraylar egallay boshlagan. Samuraylar ahloqi Xeyan davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotda samuraylikning vujudga kelishida o'ziga xos o'rinn tutdi. ularning kuchayishi rohiblarning jamiyat va boshqaruvdagi o'mini tobora siqib chiqib chiqara boshlagan.

ADABIYOTLAR

1. Weems B.B. Reform, Rebellion, and the Heavenly Way. Tucson: University of Arizona Press, 1964.
2. George Gilmore, Korea from Its Capital (Philadelphia: The Presbyterian Board of Publication, 1892, 300 p.
3. Lulu Frey. Higher Education for Korean Girls. The Korea Mission Field 10, no. 10 (Oct. 1914), p. 307.
4. National History Compilation Committee, ed., Yun Ch'i-ho's Diary, vol. 2 (Seoul, 1974). p. 139.
5. Yoo T.J.. The politics of gender in colonial Korea. Education, labor, and health, 1910-1945. University of California Press, Ltd. London, England, 2008. pp. 43-44.
6. Tongnip shinmun, 1896-yil, 21-aprel soni.
7. Yi Kwang-nin, Han'guk kaehwasa yon'gu [A study of the history of Korean enlightenment]. Seoul: Iljogak, 1969. pp. 234-43.
8. Yung-chung Kim. ed., Women of Korea. p. 154.



UDK: 930.2

Obidjon JAYNAROV,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD

E-mail: jaynarov.o@mail.ru

O'zMU professori, t.f.n. Z.A. Saidboboyev taqrizi asosida

FROM THE HISTORY OF THE "COLLEGE OF DEFENDERS" OF TASHKENT (20s OF THE XX CENTURY)

Annotation

The article, based on a wide range of primary sources and historical literature, describes the changes that occurred in the activities of the legal profession in the Tashkent region after the establishment of Soviet power. The legal services provided by lawyers, their results, the national composition and level of education of lawyers are analyzed.

Key words: Turkestan ASSR, Uzbekistan SSR, Tashkent region, People's Commissariat of Justice, courts, public defenders, human rights defenders, bar associations, legal assistance.

ИЗ ИСТОРИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТАШКЕНТСКОЙ «КОЛЛЕГИИ ЗАЩИТНИКОВ» (20-Е ГОДЫ XX ВЕКА)

Аннотация

В статье на основе широкого круга первоисточников и исторической литературы описаны изменения, произошедшие в деятельности адвокатуры в Ташкентской области после установления Советской власти. Проанализированы юридические услуги, оказываемые адвокатами, их результаты, национальный состав и уровень образования адвокатов.

Ключевые слова: Туркестанская АССР, Узбекская ССР, Ташкентская область, Народный комиссариат юстиции, суды, общественные защитники, правозащитников, коллегии защитников, юридическая помощь.

TOSHKENT "HUQUQ HIMOYACHILARI KOLLEGIYASI" FAOLIYATI TARIXIDAN (XX ASR 20-YILLARI)

Annotatsiya

Maqlolada keng turdag'i birlamchi manbalar va tarixiy adabiyotladiagi ma'lumotlar asosida Toshkent viloyatida XX asr 20-yillarida advokatura organlari faoliyatida ro'y bergan o'zgarishlar yoritib berilgan. Bunda advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik xizmatlar, ularning natijalari, advokatlarning milliy tarkibi va ma'lumot darajasi ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Turkiston ASSR, O'zbekiston SSR, Toshkent viloyati, Adliya xalq komissarligi, sudlar, jamoat oqlovchilar, himoyachilar, Advokatlar kollegiyasi, yuridik yordam.

Kirish. RSFSR Xalq Komissarları Soveti tomonidan 1917-yilning 24-noyabrida qabul qilingan "Sud to'g'risida"gi birinchi Dekret asosida Turkiston sovetlari tomonidan ishlab chiqilgan 1917-yil 12-dekabrda 17-sonli buyruqqa ko'ra butun o'lkada sobiq imperiya advokatura organlari faoliyati to'xtatilib, sudlarda fuqarolik ishlari buyicha himoyachi va vakil sifatida faqatgina nomiga dog' tushmagan shaxslar ishtirok etishi belgilandi[1]. Bunda ularning yuridik ma'lumot darajasi va oqlovchi uchun zarur bo'lgan boshqa faktorlarga umuman e'tibor qaratilmadi. Amalda himoyachilar kollegiyasining ish yuritmasligi sababli mahalliy aholi asosan sobiq imperiya advokatlari xizmatidan foydalanishda davom etdi. Turkistonda himoyachilar xaya'ti asosan 1919-yildan tashkil etila boshlandi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turkiston XKSning 1919-yil 1-iyundagi qarori bilan viloyat ijroiya qo'mitalari huzuridagi himoyachilar kollegiyasi faoliyati qayta tashkil qilindi. Qaror bo'yicha himoyachilar kollegiyasi a'zolari soni Sirdaryoda 31, Samarqandda 13, Farg'onada 26, Yettisuv viloyatida 35 nafar etib belgilandi[3]. Toshkent shahrida himoyachilar kollegiyasi a'zoligiga jami 7 kishi: I.Abramov, Ya.Barxam, L.Gersen, Shteyn, P.Ivanov, A.Kgayevskiy, V.Osipov va I.Charkovskiylar tayinlandi[4].

RSFSR MIQ tomonidan 1920-yil 21-oktabrda qabul qilingan Dekretga ko'ra "himoyachilar, ayblovchilar va fuqarolik protsessida taraflarning vakillari kollegiyasi" faoliyati tugatildi[5]. Turkiston o'lkasida ushbu kollegiya faoliyatiga MIQning 1921-yil 18-apreldagi Dekreti[6] asosida chek qo'yildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sovet davlati tomonidan Turkistonda advokatura faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha qator tabdirlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu davrda ham ularning faoliyati qoniqarsizligicha qolaverdi. Bu haqda Sirdaryo viloyati xalq sudlari kengashi a'zosi Aleksin o'z ma'rzasida viloyatda faqat Toshkent shahrida himoyachilar faoliyati to'g'ri tashkil qilinganligi, qolgan uyezdлarda ularning umuman mayjud emasligini bildirgan[7].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). XX asr 20-yillarining boshida sovet advokaturasi o'z faoliyatini asosan ikkita yo'naliishda olib borib, ulardan biri yuridik maslahat berish ishlarini tashkil qilishdan iborat bo'lgan. Maslahat punktlari asosan bozorlar, qizil choyxonalar, zavod va fabrikalar, dehqon uylari, temir yo'l klublarida hamda boshqa aholi gavjum joylarda tashkil qilingan. Turkiston o'lkasida advokatlar tomonidan faqatgina viloyat markazlaridagi aholiga yuridik yordam ko'rsatilgan xolos[8].

Toshkent uyezdi ijroiya qo'mitasi huzurida asosan mahalliy aholiga haftada 4 marotaba yuridik maslahat berish ishlari yo'lga qo'yildi. Bunga kollegiya a'zolari Do'stmuxammedov, Ibragimov, Charkovskiy, Bronshteynlar mas'ul qilib tayinlandi[9].

Kezi kelganda aytish kerak, aholiga bepul yuridik yordam berish ishlari o'lkanning boshqa hududlariga nisbatdan Toshkent shahrida qisman yaxshi yo'lga qo'yildi. Xususan, Asaka ko'chasi 10-uyda joylashgan maslahat markazi tomonidan haftada uch marotaba kechki soat 17:00 dan 20:00 ga qadar aholiga huquqiy yordam ko'rsatilgan. Markazda 1924-yil yanvar oyi davomida 61 nafar fuqarogo turli

masalalar bo'yicha yuridik maslahatlar berilib, shulardan 51 tasi bеппамалга оширилган.

Milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi O'zbekiston SSRda sudlov organlarining yangi tizimini tashkil qilinishini taqozo qildi. Xususan, Himoyachilar kollegiyasi boshqaruviда ham o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, 1924-yil dekabridan Sirdaryo viloyati Himoyachilar kollegiyasi Toshkent viloyati sudi huzuridagi Toshkent viloyati Himoyachilar kollegiyasi sifatida qayta tashkil qilindi. Shtat birligi 75 nafar etib belgilanib, shundan 65 nafar a'zo Toshkent shahrida, 5 nafar Toshkent uyezdida yana 5 nafari Mirzacho'l uyezida faoliyat olib borishi belgilab qo'yildi[10].

Sud apparatini qayta tashkil qilish ishlari shu bilan to'xtab qolmadi. 1925-yil fevralda O'zSSR Adliya xalq komissarligi sud qurilishi bo'limi tomonidan barcha hududlardagi kollegiya a'zolari soni belgilandi. Unga ko'ra Toshkent viloyatiga 50 nafar, shundan 40 nafari Toshkent shahriga biriktirilgan bo'lsa, Toshkent va Mirzacho'l uyezdlaridagi advokatlar soni o'zgarmasdan qoldi.

"Mahalliyashtirish" siyosati Advokatlar kollegiyasi faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. O'zSSR Revkomining 1924-yil 31-dekabrda 48-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Adliya xalq komissarligining 1925-yil 15-fevralda 9-sonli sirkulyari qabul qilinadi[11]. Unga muvofiq Toshkent viloyatida advokatlar o'z faoliyatini o'zbek va rus tillarida olib borishi belgilab qo'yildi. Shuningdek, kollegiya tarkibida mahalliy millat vakillarini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratildi. O'zSSR Adliya xalq komissarligining 1925-yil fevraldagi ko'rsatmasiga binoan joylardagi Himoyachilar kollegiyasi tarkibiga mahalliy millat vakillarini cheklanmagan miqdorda qabul qilish kerakligi to'g'risida buyruq berildi[12]. Toshkent viloyati sudining 1925-yil 16-iyunda bo'lib o'tgan yalpi majlisida mahalliy aholi uchun xizmat ko'rsatadigan himoyachilar mavjud emasligi va bu muammoni bartaraf qilish uchun zudlik bilan chora-tadbirlar ishlab chiqish lozimligi to'g'risida qaror qabul qilinadi[13]. Biroq tizimdagagi deyarli barcha xodimlarning yevropalik aholi vakillari tashkil qilganligi sababli qaror ijrosi to'la ta'minlanmadи.

Tahlil qilinayotgan davda sovet advokaturasi o'z faoliyatini asosan ikkita yo'nalishda olib borib, advokatlarining asosiy vazifasi sudda himoyachi sifatida ishtirot etish edi. Toshkent viloyati Himoyachilar kollegiyasi a'zolari 1925-yil aprel holatiga ko'ra 54 ta jinoi ishlari bo'yicha, 3 ta fuqarolik ishlari bo'yicha sud jarayonlarida qatnashgan. Shulardan jinoi ishlari bo'yicha xalq sudlarining 16 ta, viloyat sudining, 29 ta, harbiy tribunalning 8 ta, oliv sudning 1 ta majlisida ishtirot etgan[14]. 1925-yil may oyida kollegiya a'zolarining sud jarayonlardagi ishtiroti oshgan (85 ta). Ma'lumotlardan ko'rinish turbdiki, advokatlar ko'proq viloyat sudi majlislarida qatnashgan.

Bundan tashqari advokatlar sayyor sud majlislarida qatnashish uchun joylarga xizmat safarlariga jo'natilgan. Xususan, 1925-yil yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyati Himoyachilar kollegiyasi a'zolari asosan Pskent, Troitskiy qishloqlaridagi jarayonlarda ishtirot etgan. Jarayonlar 1 kundan 3 kungacha davom etgan[15]. Sayyor sudlarda ko'rileyotgan ishlarning deyarli barchasi mahalliy millat vakillariga tegishli bo'lib, kamdan kam holatlarda yevropalik aholi vakillarining ishlari ko'rib chiqilgan. Bu holat asosan yevropalik aholiga mansub himoyachilar uchun katta qiyinchilik tug'dirgan. Juda ko'p holatlarda ular bir-birini aniq tushunmagan. Oqibatda sud jarayonida oqlovchi nomigagina ishtirot etgan.

Advokatlarining yana bir funksional vazifalaridan biri yuridik maslahat berish ishlarni tashkil qilishdan iborat bo'lgan. Bu yo'nalish bo'yicha Toshkent viloyati advokatlar kollegiyasi bir qancha ishlarni amalga oshirgan. 1925-yil may oyida Toshkent viloyati hududida 5 ta yuridik maslahat punktlari mavjud edi: prezidium huzuridagi markaziy

maslahatxona, O'rtta Osiyo temir yo'llari kasaba uyushmasi huzuridagi ishchilar maslahatxonasi, viloyat sudi huzuridagi maslahatxona, eski Toshkentda joylashgan Jenraykom (Женрайком) qoshidagi musulmon ayollar maslahatxonasi, Rayprofbyuro (Райпрофбюро) huzuridagi eskishahar maslahatxonasi.

1925-yil avgustga kelib maslahat punktlari faoliyatida o'zgarishlar ro'y berib, ularning soni 6 taga yetgan. Qo'yiliq va "voyaga yetmaganlarni himoya qilish" bo'limi huzurida maslahatxonalar tashkil qilingan[16]. 1927-yilga kelib aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatish uchun 9 ta maslahat byurolari faoliyat yo'lga qo'yilgan. Toshkent viloyatining Mirzacho'l, Pskent va Chinozda hududlarida maslahat byurolari tashkil qilingan[17].

Arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga ko'ra ularning orasidan Rayprofbyuro huzuridagi eskishahar maslahatxonasi o'z faoliyatini sust tashkil qilgan. 1925-yil aprel holatiga ko'ra markaziy maslahatxona tomonidan 113 ta yuridik maslahat berilgan bo'lib, ulardan 97 tasi bepul, 16 tasi pullik amalga oshirilan[18]. 1925-yil may holatiga ko'ra Asaka ko'chasi 10-uyda joylashgan Prezidium huzuridagi markaziy maslahatxona tomonidan 176 ta yuridik maslahat berilub, ulardan 24 tasi pullik, 152 ta maslahat bepul berilgan. Yuridik yordam so'rab murojaat qilganlarning 98 nafari erkaklar, 78 nafari ayollar bo'lgan. Umuman olganda 1925-yil may oyida Toshkent viloyati Himoyachilar kollegiyasi a'zolari tomonidan 348 ta yuridik maslahat berilgan[19].

Qishloq va ovullardagi aholi orasida revolyutsion qonunchilik targ'ibotini kuchaytirish maqsadida Adliya xalq komissarining 1925-yil 24-iyunda 24-sonli sirkulyari ishlab chiqildi[20]. Unga ko'ra joylardagi dehqon uylari, qizil choxonalarda bepul yuridik maslahat ko'rsatadigan kollegiya a'zolari faoliyatini tashkil qilish va ularning nazorati viloyat sudlari zimmasiga yuklatilishi belgilandi. Toshkent viloyatida bu bo'yicha bir qator ishlari amalga oshirish ko'zda tutildi. Volostlarga bitta yoki bir nechta himoyachilar biriktirilishi, yuridik maslahat punktlarini asosiy yo'l bo'yalaridagi hududlarda xususan, Luncharskiy, Niyozbek-Troitskiy, Qorasuv-1, Qo'yiliq, To'yete, Pskentda tashkil qilish va boshqalar. Shuningdek, har bir konsultantning navbatchilik davridagi haftalik xarajatlariga ajratilgan mablag' 200 rubldan kam bo'imasligi belgilab berildi[21].

1925-yil avgust oyidan har bir kollegiya a'zosining haftada 3 marotaba yuridik maslahat punktlarida navbatchiligi yo'lga qo'yilgan. Aholiga yuridik yordam berishni yanada kuchaytirish maqsadida 1926-yil oxirida Toshkent ishchilar klubida 21 nafar kollegiya a'zosining haftada bir marotaba doimiy navbatchiligini joriy qilish belgilandi. Biroq advokatlar tomonidan ko'p hollarda aholiga yuridik yordam ko'rsatilmadi. Toshkent viloyat sudining 1925-yil 16-iyunda bo'lib o'tgan yalpi majlisida viloyat sud apparati mas'ul rahbari Bityutksa "kollegiya a'zolari tomonidan Toshkentning eski shahar qismida yuridik yordamga ehtiyoji bor fuqarolarning ko'p bo'lishiga qaramasdan konsultatsiyalar o'tkazilmagan"[22]ligi haqida ayitib o'tadi.

Bundan tashqari mahalliy aholini sovet qonunchiligi normalari bilan kengroq tanishtirish maqsadida yana bir qator ishlari amalga oshirildi. Bunday vazifalarni bajarishda asosan advokatlarining xizmatidan foydalaniidi. Xususan, 1925-yildan Jenotdellar taklifi asosida kollegiya a'zolari mahalliy ayollar ishtirot etgan majlislarda oila va ota-onalardan huquqlari bo'yicha o'zbek tilida ma'ruzalar o'qishi belgilandi[23].

1925-yil avgust oyida Toshkent viloyatidagi kollegiya a'zolari shu mazmunda 4 marotaba ma'ruza o'qigan[24]. Shuningdek, 1925-yildan kollegiya Prezidiumlari qoshida kutubxonalar ham tashkil qilinib, ular ko'proq yuridik adabiyotlar va jurnallar bilan to'ldirib borildi. Adabiyotlarning asosiy qismi rus tilida edi. Biroq ularning faoliyati qoniqarli bo'limganligini ko'rish mumkin. Birgina Toshkent

viloyatidagi kollegiya Prezidiumi kutubxonasidan 1925-yilning olti oy davomida (yanvar-iyun) jami 60 kishi foydalangan.

XX asr 20-yillarida himoyachilarining to‘la davlat nazoratiga olinishi kuchaygan. Xususan, kollegiya a’zosi V.A.Kanning “Правда Востока” gazetasiga 1925-yil 13-iyunda bergen ma’lumotiga siyosiy tus berilib, bu burjua advokaturasiga og‘ish sifatida baholangan. Toshkent viloyati ijroiya komiteti (исполком)dan masala yuzasidan tegishli qaror chiqarish so‘ralgan[25].

Advokatlarning milliy tarkibiga to‘xtalib, shuni aytish kerak, 1924-yil dekabrda Toshkent viloyati sudi huzuridagi Himoyachilar kollegiyasida 56 nafar himoyachi faoliyat ko‘rsatib, shulardan 3 nafarigina mahalliy millat vakillari edi[26]. 1925-yil aprel oyida a’zolarning 9,6 foiz (5 nafar) mahalliy millat vakillari bo‘lsa, may oyiga kelib 44 nafar a’zodan 7 nafarini mahalliy millat vakillari tashkil qilgan[27]. Bu raqamlar himoyachilar kollegiyasi tarkibida tub aholi vakillarining sovet davlati tomonidan ko‘paytirilishga katta e’tibor qaratilganligini ko‘rsatib turibdi. Shunday bo‘lsa-da, kollegiya tarkibida yevropalik aholi vakillari yuqoriligidacha qolavergan (jami himoyachilarning 84,6 foizi). 1927-yilda Toshkent okrug sudi huzuridagi kollegiya tarkibida a’zolar soni 67 nafarni tashkil qilib, ulardan 5 nafari o‘zbek, 6 nafar xotin-qizlar ham bor edi.

Toshkent viloyati himoyachilar kollegiyasi a’zolarining ma’lumot darajasi tahlil qilinayotgan davrda ancha qoniqarli bo‘lganligini ko‘rish mumkin. 1925-yildagi ma’lumotlarga ko‘ra kollegiyadagi 44 nafar a’zodan 25 nafari oliv, 16 nafari o‘rtta, 3 nafari quyi yoki boshlang‘ich ma’lumotga ega bo‘lgan[28]. Oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lganlarning 7 nafari (15,9 foizi)ni sobiq imperiya advokatlari tashkil qilgan[29].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish kerak, XX asr 20-yillarida O‘zbekistonda boshqa hududlarga nisbatdan Toshkentda advokatlar faoliyati qoniqarli ahvolda edi. Bunga birinchidan, hududning ma’muriy markaz sifatidagi o‘rni bo‘lsa, keyingi sabab sobiq imperiya davrida soha vakillarining katta qismi Toshkentda o‘z faoliyatini yuritgan. Tabiiyki, tahlil qilinayotgan davrda ham ularning ko‘philigi Toshkentda istiqomat qilib turgan.

Biroq advokatura sohasiga Sovet hukumatni tomonidan tez-tez o‘zgartirishlarning kiritilishi, advokatlik “erkin” kasb sifatida e’tirof etilgani holda ko‘proq hukumat topshiriqlarini bajarishga safarbar qilinganligi ular faoliyatining samaradorligini tushirib yubordi. Bu kabi holatlar himoyachilar kollegiyalarini faoliyati nisbatdan qoniqarli bo‘lgan Toshkentda ham o‘z aksini topdi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zMA R-25-fond, 1-ruyxat, 19-ish, 33-varak.
2. Жайнаров О. Туркистон АССР адлия органлари: шаклланиши, структураси ва фаолияти. – Тошкент: Lesson Press, 2023. – Б. 98.
3. Вестник Комиссариата Юстиции Туркестанской Республики. – 1919. – № 2. – С. 3-5.
4. O‘zMA R-38-fond, 2-ro‘yxat, 48-ish, 22-varaq va uning orqasi.
5. Декреты Советской власти. Т. XI. – Москва: Политиздат, 1983. – С. 87.
6. O‘zMA R-344-fond, 3-ro‘yxat, 1-ish, 1-5-varaqlar.
7. O‘zMA R-38-fond, 4-ro‘yxat, 6-ish, 74-varaqning orqasi.
8. O‘zMA R-25-fond, 1-ruyxat, 1802-ish, 19-varak.
9. Toshkent VDA R-282-fond, 1-ro‘yxat, 27-ish, 6-varaqning orqasi.
10. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 7-ish, 4-varaq.
11. O‘zMA R-904, 1-ro‘yxat, 5-ish, 52-varaq.
12. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 18-ish, 13-varaq.
13. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 7-ish, 27-varaq.
14. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 18-ish, 22-varaq.
15. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 18-ish, 82-varaqning orqasi.
16. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 18-ish, 51-varaq.
17. O‘zMA R-904, 1-ro‘yxat, 64-ish, 14-varaq.
18. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 18-ish, 22-varaq va uning orqa tomoni.
19. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 18-ish, 20-varaq.
20. O‘zMA R-904, 1-ro‘yxat, 5-ish, 124-varaq.
21. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 18-ish, 105-varaq.
22. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 7-ish, 28-varaq.
23. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 18-ish, 20-varaqning orqa tomoni.
24. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 18-ish, 51-varaqning orqa tomoni.
25. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 18-ish, 26-varaq.
26. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 7-ish, 4-varaq.
27. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 18-ish, 20-varaq.
28. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 18-ish, 80-varaq.
29. O‘zMA R-904, 8-ro‘yxat, 18-ish, 80-varaq.



UDK: 902.94(575.1).338.462.

Istora JO'RAYEVA,

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: istorajorayeva@gmail.com

FarDU dotsenti, t.f.n N.Alimova taqrizi asosida

THE ROLE OF BUSINESS WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN

Annotation

This article talks about women's entrepreneurship and its role in the development of Uzbekistan. Also, one of the most important issues of state policy, the activities carried out by women in increasing the welfare of the population, raising the standard of living, creating new jobs, and the impact on the economy of Uzbekistan are shown.

Key words: Women's business, family business, subsidy, loan, "women's notebook", online application, small business.

РОЛЬ ДЕЛОВЫХ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье говорится о женском предпринимательстве и его роли в развитии Узбекистана. Также показан один из важнейших вопросов государственной политики, деятельность, осуществляемая женщинами по повышению благосостояния населения, повышению уровня жизни, созданию новых рабочих мест, влияние на экономику Узбекистана.

Ключевые слова: Женское предпринимательство, семейный бизнес, субсидия, кредит, "женский блокнот", онлайн-заявка, малый бизнес.

O'ZBEKİSTONNING TARAQQIYOTIDA TADBİRKOR AYOLLARNING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ayollar tadbirkorligi va uning O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, davlat siyosatining eng muhim masalalaridan biri bo'lgan aholi farovonligini oshirish, turmush darajasini ko'tarish, yangi ish o'rinalarini tashkil etishda ayollar tomonidan olib borilayotgan faoliyat ochib berilgan hamda O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Ayollar tadbirkorligi, oilaviy tadbirkorlik, subsidiya, kredit, "ayollar daftari", onlayn ariza, kichik biznes.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, ijtimoiy muammolarni hal etishda bozor iqtisodiyotini barpo etish va mamlakatda tadbirkorlik hamda kichik biznesni rivojlantirish yo'lidan bordi. Hozirgi kunga kelib, tadbirkorlik va kichik biznes subyektlari mamlakatning barcha tarmoqlarida faoliyat yuritmoqda.

Bugun O'zbekiston aholisi barqaror sur'atlarda o'sayotgan davlatlar qatoridan joy olgan. Hususan, aholi soni yiliga 1,48 foizga ortib bormoqda. Masalan, Farg'on'a viloyatida 2023- yil doimiy aholi soni 4014,8 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 83,7 ming kishiga yoki 2,1 foizga ko'paygan.

Ayni ko'rsatkichlar esa o'z navbatida o'sib borayotgan aholi turmush darajasini oshirish, va ularning bandligini ta'minlash kabi bir qator vazifalarni yuzaga keltiradi. O'zbekiston dunyo hamjamiyati orasida aholisining katta qismi yoshlar tashkil etuvchi mamlakat hisoblanadi. Shuningdek, yoshlarning aholi orasida son jihatdan ko'pchilikni tashkil qilishi mamlakatni barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Masalan, 2023- yil 1- yanvar holatiga Farg'on'a viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 236,7 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib, 76,3 ming kishidan iborat. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 220,6 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar

hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni 83,1 ming kishini tashkil etadi [1].

O'zbekiston aholisini tadbirkorlik sohasiga jalb qilish niyoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat siyosatida ham sohaga e'tibor yildan-yilga kuchayib bormoqda. Zero, tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, bandlikni ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin mamlakat hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, qo'llab quvvatlash, mehnat va o'qish sharoitlarini yaxshilash, himoya qilish davlat siyosatining muhim yonalishlaridan biri sifatida qaraldi. O'zbekistonning yanada ravnaq topishi, xalq hayotini munosib darajaga ko'tarishda erkaklar bilan bir qatorda muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan tadbirkor ayollarning soni ham tobora ortib bordi. O'zbekiston banklari tomonidan 2017 yilda 120 ming nafardan ortiq xotin-qizlarga jami 2 trillion 700 milliard so'mlik kreditlar ajratildi. Hamda, 84 ming nafardan ziyod xotin-qizlar doimiy ish joylari bilan ta'minlandi. 2018-2023 yillar mobaynida ayollar rahbarlidagi oilaviy biznes, kasanachilik, xususiy tadbirkorlik rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ayollar tadbirkorligini oshirish mamlakat iqtisodiyotiga keskin ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, ijtimoiy ko'makga muhtoj ishsiz ayollar yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etilishi natijasida doimiy ish o'rinalariga ega bo'lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda tadbirkor ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, resurslar va sarmoyalarni teng taqsimlash borasida qator islohotlar va

tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Davlat dasturlari va loyihami tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan xotin-qizlarni yetarli kapital va investisiyalar bilan ta'minlashga qaratilgan. Xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-son qarori ko'ra, ayollarga ajratiladigan subsidiyalar miqdorini 7 dan 10 million so'mgacha oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu subsidiya biznesni boshlash va uni yuritish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar sotib olish uchun beriladi. "Ayollar daftari"da ro'yxatdan o'tgan, tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida bo'lgan xotin-qizlarga yakka tartibda ro'yxatdan o'tish uchun ariza topshirishlari talab etiladi. Shuningdek, xotin-qizlarga qulaylik yaratish maqsadida ular uchun online-mahalla.uz (<https://online-mahalla.uz/>) saytida masofaviy ariza topshirish imkonini ham yaratilgan. "Ayollar daftari" ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlash, bilim va kasbiy tayyorgarlikka muhtoj bo'lgan ishsiz ayollarning muammolarini aniqlash va hal etish bo'yicha ma'lumotlar bazasini hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda O'zbekistonda yaratib berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalaniib, oila yumushlari va farzandlar tarbiyasidan ajralmagan holda oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'ygan ayollar ko'pchilikni tashkil etadi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlanishidasturlari doirasida 2020 yilda 214 mingdan ortiq loyihaga jami 6,1 trln. so'm imtiyozli kredit mablag'lari ajratilgan. Dasturlar doirasida ajratilgan kreditlarning 2 trln. 479 mlrd. so'mi (41 foizi) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan. Hamda, 3 trln. 599 mlrd. so'mi (59 foizi) o'zini o'zi band qiluvchi jismoniy shaxslarga ajratilgan. Bunda asosiy e'tibor aholini qo'shimcha daromad manbalariga ega bo'lishiga hamda kafolatlangan yangi ish o'rinalarini yaratishni nazarda tutuvchi tadbirkorlik sub'yektlarining loyihalarini moliyalashtirishga qaratildi. Mazkur mablag'larning 1 trln. 620 mlrd. so'mi xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlanishga ajratilgan. Qishloq joylarida vaqtinchalishsiz ayollar va umumta'lum maktablari bitiruvchilarini tadbirkorlikka yo'naltirish, ularning moliyaviy savodxonligini oshirish uchun onlays "Biznes klinikalar" tashkil qilingan [2].

2022 yil O'zbekiston Respublikasida tadbirkor ayol rahbarlarning iqtisodiy sohalar bo'yicha faoliyati savdo sohasida – 14 147, xizmatlar sohasida – 10 057, sanoatda – 5 543 tani tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ayol rahbarlar boshqaruvidagi 16 359 ta kichik korxona va mikrofirmalar 2021 yilda 2,3 trln. so'm sof foyda oлган. O'rta hisobda bitta tadbirkorlik subyektiga to'gri keladigan sof foyda miqdori tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik tadbirkorlik subyektlari va korxonalarda 141,4 mln. so'mni tashkil etadi. 2023 yil O'zbekiston Respublikasida ayol tadbirkorlar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 39 078 taga yetdi. Ushbu ko'rsatkichlarni o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ayol tadbirkorlar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 26 06 taga ortgan [3].

Tahlil va natijalar. Xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bugungi kunda butun dunyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo bo'ylab 252 millionga yaqin ayol tadbirkorlik faoliyatini olib boradi. Sshuningdek, 153 million ayol tizimli tashkil etilgan biznes bilan shug'ullanadi. So'nggi 20 yilda tadbirkor ayollar ulushi 114 foizga oshdi. Global Tadbirkorlik va Rivojlanish Institutining (The Global Entrepreneurship and Development Institute) dunyo bo'yicha ayollar tadbirkorligi indeksini e'lon qilib boradi (ayollar tadbirkorligini monitoring qilib borish bilan shug'ullanadi). Shuningdek, xalqaro standartlar va me'zonlar asosida ayollarning iqtisodiyotdagi ishtirokini belgilab beradi. Ayollar tadbirkorligi indeksi – butun dunyo bo'ylab yuqori salohiyatlari ayollar tadbirkorligining rivojlanish mezonlarini o'rganadi.

"Innovatsion, bozorni kengaytiruvchi va eksportga yo'naltirilgan" sifatida belgilangan ayollarga xos indeks tadbirkorlik rivojlanishining ko'p o'chovli jihatlarini qamrab olish uchun GEDIning o'ziga xos asosi, metodologiyasi va global yondashuvidan foydalanadi[4].

Global miqyosda ayollar milliy va xalqaro bozorlarga yo'naltirilgan har uchinchi yuqori o'sayotgan tadbirkor va innovatsion tadbirkorni ifodalaydi. Yuqori o'rta daromadli mamlakatlardagi ayollar xalqaro bozorga e'tibor qaratish uchun erkaklar bilan teng ravishda dunyodagi eng innovatsion, yuqori o'sish sur'atiga ega tadbirkorlardan biri hisoblanadi. Ikki yillik pandemiya sharoitida (2019-2021 yillarda) ayollarning biznesdan chiqish darajasi erkaklarnikidan (3,5 foizdan 4,4 foizgacha) farqli o'laroq 2,9 foizdan 3,6 foizgacha ko'tarildi. O'rtacha daromadi yuqori bo'lgan mamlakatlardagi ayollar biznesdan chiqishga eng katta pandemiya ta'sirini ko'rsatdi (2019 yildan 2021 yilgacha 74 foizga o'sgan, erkaklarda esa 34 foiz [5]).

O'zbekistonda tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan ayollarning Global Tadbirkor Ayollar Indeksiga kiritilmagan. Shu boisdan, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun timimsiz tizimli yondashuvlar maliyotga joriy etib borilishi zarur. An'anaviy ravishda erkaklar ustunlik qiladigan sektorlarda tadbirkor ayollar kam namoyon bo'ladi. Erkaklar ustunlik qiladigan sektorlarda ayollarni teng darajada qo'llab-quvvatlash muhim tamoilardan biri sanaladi.

Ayollar har 3 nafrar yuqori potentsial tadbirkorlardan 1 nafarin tashkil qiladi. Shuning uchun ayollar hozirda faol bo'lgan tarmoqlarga moliyalashtirish va boshqa yordamlarni jabol qilish uchun qo'shimcha dasturlarini ishlab chiqish zarur. "Global Tadbirkorlik va Rivojlanish Instituti" (The Global Entrepreneurship and Development Institute)ning akademik tadqiqotlaridan ma'lumki, ayollar ham xuddi shunday sanoat tarmoqlarida o'xshash biznesni boshlashda muvaffaqiyat qozonish ehtimoli bor. Tadqiqotda ishtirop etayotgan milliy ekspertlarning fikricha, hozirda ayol tadbirkorlar uchun muvaffaqiyati ta'sischilarni na'muna sifatida targ'ib qilish juda muhimdir. Ayniqsa, barqarorlik uchun tenglik masalalari ijtimoiy nuqtai nazardan ko'proq ahamiyat kasb etayotgan davrda xotin-qizlar masalasi, genderni o'rganishga ko'proq va nuantali yondashuvni rag'batlantiradi[6].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rniда aytish mumkinki, jamiyat rivojida xotin-qizlarning o'rni beqiyos hisoblanadi. Bugun turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va hodimlarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. O'zbekistonda xotin-qizlarning mehnat faoliyatini qo'llab-quvvatlash, etarlicha ishlash sharoitlarinin tashkil etish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Hozirgi davrda xotin-qizlar, gender tengligi masalalari ko'plab davlatlar siyosatida ustuvor yo'naliшhlaridan biri sifatida e'tirof etilishi sohani keng rivojini vujudga keltirmoqda. Shu boisdan, ayollar va ularning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalardagi ishtirokiga e'tibor kuchaymoqda.

Ayniqsa, bugungi kunda O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar mamlakatda xotin-qizlarning ta'limga va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlari hamda uy-joy bilan ta'minlanishi, turmush tarzini yanada yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Turli tarmoqlarda va tashkilotlarda o'zining samarali mehnat faoliyatini yo'lga qo'ygan xotin-qizlar ishtirokisiz O'zbekiston taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Masalan, ular yengil sanoatning asosiy tarmoqlari bo'lgan to'qimachilik, kasanachilik, tikuvchilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, do'ppido'zlik va pillakorlik kabi sohalarda allaqachon o'z o'rnilarini topib ulgurgan. Shu o'rinda, miqyosi va ko'lami tobora kengayib borayotgan islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirish jarayonida xotin-qizlar ham faol ishtirop etmoqda.

O'zbekistonning taraqqiyotida muhim o'rinni tutgan jarayonlarni tarixiy nuqtai nazardan tahlil etish va unda xotin-qizlarning tutgan o'rmini munosib baholay olish O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy hayotining yanada yangi bosqichlarga ko'tarilishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi rivojlanish yo'nalishlarini o'rganish, xotin-qizlarning ushbu

jarayonlardagi ulushi va hissasini chuqr ilmiy tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalalarini keng ko'lamli, chuqr o'rganish, sohalarning rivojlanish xususiyatlari va mehnat resusrlaridan oqilona foydalanish masalalarini tahlil etish, bu borada taklif-mulohazalarni bildirish bugungi kunning ehtiyojlardidan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Tojiyeva Z.N., F.A. Do'smonov F.A. Demografiya. – T., 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 24.04.2021 yildagi SQ-286-IV-son
3. Ayollar va erkaklar statistik to'plami. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. . – T., 2023.
4. <http://thegedi.org/research/womens-entrepreneurship-index/> murojaat qilingan sana: 23.07.2024.
5. Afshan, G., Shahid, S. va Tunio, MN (2021). COVID-19 davrida tadbirkor ayollar tajribasini o'rganish. Xalqaro gender va tadbirkorlik jurnalı, 13 (2), 162–186.
6. Nargizakhan Alimova and Makhfuzakhon Shamsieva.(2024) Evolving Narratives: Intersection of Gender and History. International Journal of Religion2024Volume: 5| Number 9| pp. 865–870



Abdug'affor INSOPOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail: abdugaffor_nuz@rambler.ru

T.f.d. prof A.Yermetov taqrizi asosida

HISTORICAL STAGES OF DEVELOPMENT OF THE LAW ENFORCEMENT SYSTEM IN UZBEKISTAN

Annotation

In the countries of the world, special structures operate in the processes of monitoring the implementation of existing laws, ensuring human rights, and fighting crime. In this case, the activities of prosecutor's offices are of special importance, and it was considered important to study the stages of development over the centuries. This article analyzes the structures that control the procedures in the society since ancient times in Central Asia and their development in different periods.

Key words: Ruler, Avesta, law, law, society, state, prosecution, prosecutor, judge, inspector, control, structure, organization, justice.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ПРАВОХРАНИТЕЛЬНОГО ОРГАНА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В странах мира в процессах контроля за выполнением действующего законодательства, обеспечения прав человека и борьбы с преступностью действуют специальные структуры. При этом деятельность прокуратуры приобретает особое значение, и считалось важным изучить этапы развития на протяжении веков. В данной статье анализируются структуры, контролирующие процессы в обществе с древнейших времен в Центральной Азии и их развитие в разные периоды.

Ключевые слова: Правитель, Авеста, право, право, общество, государство, обвинение, прокурор, судья, следователь, контроль, структура, организация, правосудие.

O'ZBEKİSTONDA QONUNLAR İJROSINI NAZORAT QILISH TİZİMİNING TARİXİY TARAQQİYOT BOSQICHLARI

Annotatsiya

Dunyo davlatlarida mavjud qonunlar ijrosini nazorat qilish, insonlar haq-huquqlarini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash jarayonlarida o'ziga hos maxsus tuzilmalar faoliyat olib boradilar. Bunda prokuratura organlarini faoliyati alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularni tashkil etilishi faoliyati, asrlar davomida rivojlanish bosqichlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyoda qadimdan jamiyatdagi tartib-qoidalarni nazorat qiluvchi tuzilmalar va ularning turli davrlarda rivojlanib borishi, bu kabi tuzilmalar haqida manbalarda ma'lumotlarni qayd etilishi, prokuratura organi tashkil etilgungacha bo'lgan davrdagi faoliyatlarini mazkur maqolada tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Hukmdor, Avesto, qonun, huquq, jamiyat, davlat, prokuratura, prokuror, qozi, muhtasib, nazorat, tuzilma, tashkilot, adolat.

Kirish. Bugungi kunda qonun ustuvorligini ta'minlash, insonlar haq-huquqlarini himoya qilish, jamiyatda fuqarolar haq-huquqlari, erkinligini kafolatlash masalalarida prokuratura organlari faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda prokuratura organlari faoliyatida so'nggi yillarda sezilarli darajada o'zgarishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezyident Sh.Mirziyoyev sohaning jamiyatdagi o'rni haqida "...Odamlar hamma narsaga chidashi mumkin,adolatsizlikka chiday olmaydi. Jamiyatda adolat barqaror bo'lishida prokuratura organlarining o'rni katta bo'lmog'i kerak" [1] – deb ta'kidlaganida bu tashkilotni jamiyat hayotidagi o'rni naqadar muhim ekanligini ko'rsatib o'tadi. Bu o'z navbatida prokuratura organlarini takomillashtirish va ularni faoliyatini chuqurroq tadqiq etish kerakligini ham anglatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etilishi masalasini o'rganish asnosida bu jarayon uzoq tarixiy bosqichni bosit o'tganligini ko'rish mumkin. Manbalarga e'tibor qaratilsa jahon tarixida prokuratura organlari asosini Qadimgi Rim, Yunoniston, Bobil davlatlarida tamal toshi qo'yilganligi qayd etib o'tiladi.

Qadimgi Rim davlatini huquqiy normalari boshqa shaxslar tomonidan bузilgan huquqlarni tiklash, ya'ni huquq

buzilishidan oldingi bo'lgan dastlabki holatiga qaytarishga katta e'tiborni qaratgan.

Rim halqi boshqa halqlar kabi bузilgan huquqlarni davlat organlari orqali, ayniqsa davlat sudining vujudga kelishiga qadar, huquq bузilishlaridan o'zini-o'zi himoya qilish instituti orqali himoya qilganlar. Ular o'z huquqlarining bузilganligini bilishgandan so'ng, eng avvalo, huquqiy munosabat ishtirokchisi o'z kuchiga, ilmiga, aqliga suyangan holda va boshqa hususiyatlaridan foydalaniib, o'zini - o'zi himoya qilishga kirishgan. Agar uning bir o'zi bузilgan huquqni tiklay olmasa, yoki uning qaytadan sodir etilishini to'xtata olmasa, hamda sodir etilishi holatlarini yo'qqa chiqarish munosabatlarni ta'minlay olmasa bunday holatda o'zining oila a'zolarini ham ko'makka chaqirganlar [2].

Jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichga qadam qo'yishi bilan o'zini-o'zi himoya qilish instituti, ya'ni individual asosida, yovvoyilik, varvarlik usulidagi kurashlar, qarshilik ko'rsatishlar o'z mohiyatini yo'qotib bordi. Uni o'rniqda intizomllik asosida, davlat tomonidan bузilgan huquqlarni himoya qilish munosabatlari kelib chiqdi, lekin bu munosabatlarning to'liq kuchga kirishiga qadar, baribir rivojlangan Rim huquqi asosida ham o'zini o'zi himoya qilish instituti mavjud bo'lib qoldi. Bu institut asosidagi harakat faqat manfaatdor bo'lgan shaxslar tomonidan o'z foydalariga

favqulodda holatlardagina qo'llanishi lozim bo'lgan harakatlarni anglatса, o'zini-o'zi tomonidan himoya qilish bordaniga tortib olingen mulkni egasiga qaytarilishidek, tez orada bajarilagan munosabatlardan iborat bo'lgan [3].

Bu munosabatlar buzilgan huquqni tiklash, uning boshqa sodir etilmasligini ta'minlash va sodir etilgan holatlarni yo'qqo'chiqarish, uni sodir etadigan Rim fuqarolik protsessida dastlabki vaqtarda vakillik instituti qo'llanmagan. Lekin, alohida hollarda ya'ni «ozodlik uchun, xalq uchun, vasiylik va homiylik» bilan bog'liq munosabatlarda vakillikka yo'l qo'yilgan. Vakilning harakatini vakolat bergan shaxs qo'llab-quvvatlashi lozim bo'lgan. Sud'yalar o'z qarorlarini vakilga qaratib qabul qilganlar. Vakil esa vakolat bergan shaxsga tushuntirib, to'lanishi lozim bo'lgan summalarini to'lash, ashylarni qaytarish kabi masalalarni amalga oshirgan. Keyinchalik esa vakillik voyaga yetmagan shaxslar o'rtafigi munosabatlar, xotin-qizlar bilan bog'liq harakatlar, davlat ishlarini bajarish uchun safarga ketgan shaxslarning o'rniga, kasallik asosida o'z huquqlarini himoya qila olmaslik yoki sudda qatnasha olmaslik asosida ham ishlarda vakilning qatnashishiga ruxsat berilgan [4].

Sivilist olim Rim huquqi bo'yicha bir qator o'quv adabiyotlarining mualifi V.R.Topildiyevning fikricha, Rim fuqarolik protsessida Prokuratura instituti – ya'ni, javobgar nomidan vakillik qilish rasmiy ravishda, ba'zan esa norasmiy asosda amalga oshirilgan. Ulardan tashqari vakil qilib olinmasdan, taraflarga yoki protsess ishtirokchilariga og'zaki ravishda yuridik yordam beruvchi (advocati) advokatlar ham qatnashgan [5].

Prokuror so'zi (lotincha, procurare so'zidan olingen bo'lib - boshqarish, g'amxo'rlik qilish, vakillik qilish) ayblovning asosiy sud vakili, taraflarning ayblovchisi ma'nosini bildiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki prokuratura tushunchasi qadimgi Rim davlatida ilk marotaba o'zini mujasamini topgan deb aytish mumkin.

Shu bilan bir qatorda jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida qadimgi Rimda "pretor" bo'lib jinoiy ta'qiblarni amalga oshirish bilan bir qatorda jamiyat tinchligi, osoyishtaligini amalga oshirgan. Shuningdek Yunoniston va Bobilda ham maxsus davlat tomonidan tayinlangan amaldorlar bu ishlarni yuritgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Qadimgi Misr yoki Mesopotamiya kabi boshqa qadimgi sivilizatsiyalarda huquqiy tizimlar diniy va odat qonunlariga asoslanadi. Bu jamiyatlarda qonunlarni ijro etish va jinoyatlarni ta'qib qilish ko'pincha diniy idoralar yoki mahalliy amaldorlarning mas'uliyati bo'lgan. Bu davrda alohida prokuratura mayjud bo'lmagan [6]. Qadimgi Misr, Messopotamiya kabi davlatlarda huquq tizimi asosan diniy qonun-qoidalar yoki amaldorlar tomonidan nazorat qilinganligi sababli va ularda alohida davlat tomonidan lavozimlar joriy etilmagan.

Prokuratura sifatida alohida institutning shakllanishi asosan XIV-asrda Fransiyada tashkil etilganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Unga ko'ra mamlakatda asosan qирол manfaatlarini himoya qilish maqsadida "Qirol prokurori" tashkil etilganligi e'tiborga molik. Prokurorlar qиролга yozma hujjatlari tayyorlash, sudlarda qирол nomidan ishtiroy etib, nutq so'zlash kabi vazifalarni amalga oshirgan [7].

Bu kabi tuzilmalar keyinchalik Avstriya, Germaniyada va boshqa davlatlarda davlatni boshqarishdagi asosan tayanch sifatida ham tashkil etilganligini ko'rish mumkin. Yer yuzidagi ko'plab davlatlarda bugungi kundagi prokuratura tizimi ham ko'plab nomlar bilan ataladi va davlatning qonunlariga ko'ra turli vazifalarni bajarib keladi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo tarixi jahon tarixining ajralmas uzviy qismida sifatida o'rganiladi. Shundan kelib chiqib prokuratura organlari faoliyatining ham mazkur hududda o'ziga hos shakllanishi va rivojlanish tarixiga ega.

Markaziy Osiyo qadimdan davlatchilik munosabatlari shakllangan hudud bo'lib, qadimgi davatlarda ham o'ziga jamiyatdagi tartib qoidalarni nazorat qilish huquqiga ega bo'lgan tuzilmalar mavjud bo'lgan va bu borada o'ziga hos tarixiy bosqichlar ham shakllanganligini ko'rish mumkin.

Tahlil va natijalar. Xususan Markaziy Osiyo tarixiga oid bo'lgan eng qadimgi yozma manbalardan bir "Avesto"da ham jamiyatdagi mavjud o'rnatilgan tartib-qoidalalar majmu'i keltirilgan bo'lib,unga itoat etish va tartibni buzganlarga qarshi qat'iy choralar ko'rilib masalasiga batafsil to'halib o'tiladi. Avestoda jinoyat, oila nikoh, fuqarolik, harbiy, sud huqulari normalari mavjud. Birgina suvni qadriga yetish, suvdan unumli foydalanish haqida, kundda ekinni ikki marta sug'orish mumkinligi, har kishi "bir belkurak kenglikda" va chuqurlikda ariqqa sig'adigan suv olishga haqli ekanligi to'g'risida tartib kiritilgan bo'lib uning nazorati kohinlar tomonidan amalga oshirilgan. Tartibni buzganlar majburiy mehnatga jalg qilish bilan jazolanganlar. Bundash tashqari o'lgan odamni yoki itni yerga ko'mganlar, o'likni yoqib yuborganlar belgilangan tartibda jazoga tortilganlar. Jamiyatdagi tartib qoidalarga amal qilish, ularga jazo tayinlash sud nazoratida (Oqsoqollar Kengashi mo'tabar ulamosi kohin bo'lib, Oliy sud'yaya vazifasini bajargan) bo'lganligi ham qayd etib o'tiladi [8].

Davlatchilik munosabatlarini shakllanishi va rivojlanishi asosida mavjud davlatlar tomonidan jamiyatda tartib-qoidalarni o'rnatish va unga amal qilish, shuningdek hukmdorlarning barcha topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilib turish tartibi o'rnatilgan. Albatta bu vazifalarni vakolat berilgan davlatning mansabdor shaxsleri tomonidan amalga oshirilganligini ko'rish mumkin. Xususan, Turk xoqonligi davrida Xoqon qonun chiqaruvchi shaxs bo'lish bilan bir qatorda uning ijrosini ham ta'minlovchi hisoblangan. Davlatda barcha amaldorlar va halq xqonga bo'ysinar va uning qonunlariga so'zsiz itoat qilganlar. Saroy ishlarni yuritish va qonunni buzganlarni jazolash, xalqdan shikoyat va arizalarini qabul qilish masalalari bo'yicha ham alohida lovozimlar joriy etilgan.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo hududlariga islom dini kirib kelgandan so'ng jamiyatda islom dinida belgilangan tartibda huquq tizimi vujudga keldi. Jamiyat rivojlanishi bilan bir qatorda insonlar haq-huquqlarini himoya qilish tizimi ham shakllanib borganligini ko'rish mumkin.

Unga ko'ra davlat boshqaruvida o'ziga hos tartib-qoidalalar joriy etildi va shariat tartib-qoidalari barcha amal qilishini tartib solib turish va nazorat qilish maqsadida maxsus lavozimlar ham joriy etildi. Davlatda shariat tartib-qoidalalarini bajarilishi yuzasidan alohida xukmdor tomonidan tayinlanadigan "Qozi"lik lavozimlari joriy qilingan [9].

Qozilik lavozimiga tayinlangan shaxsler tomonidan umumiylar tarzda jamiyatda o'rnatilgan tartib qoidalarni bajarilishi bilan birga hukmdor farmonlari, insonlar o'rtafigi o'zarो kelishmovchiliklarni hal qilish, jinoyatga yarasha jazo belgilash vakolatlariga ega hisoblanardi.

Shunday lavozimlardan biri "Muhtasib" (Rayis, rais - qayd etish lozimki, rais leksemasi qadimgi Sharqda qo'llangan muhtasib so'zi bilan sinonim tarzida qo'llangan. Muhtasib mansabi har bir shaxarda mavjud bo'lgan. Muxtasis leksemasi arab tilidan o'zlashtirilgan bo'lib, birinchi bor "Qutadg'u bilida "nazoratchi" ma'nosida qayd qilingan [10]) bo'lib, vazifasiga ko'ra davlatda aholi tomonidan shariat qonunlarini bajarilishini kuzatar, masjidga borib nomoz o'qishga keluvchilar ro'yhatini, bozorlarada tosh-tarozilarni to'g'riligini tekshirishardi [1]. Bundan tashqari ichkilikbozlik, so'dhurlikka qarshi kurashish ham ularni asosiy vazifalaridan buri hisoblangan.

Muhtasib lavozimi davlat boqaruvida VII asrda xalifa Umar (r.a) tomonidan shikoyatlarni ko'rib chiqish, nizolarni hal qilish uchun joriy etilganligini qayd etib o'tiladi. Mazkur

lavozimni lug‘aviy ma’nosini sifatida “Muhtasib-arab tilidagi “hasaba” fe’li o‘zagidan yaasalga bo‘lib, uning ism-shakli “hisba”-hisob-kitob, ajr, evaz, mukofot, o‘lchov va og‘irlik o‘lchovlarini nazorat qiluvchi mansab ma’nosini anglatganligi ham manbalarda qayd etib o‘tiladi. Muxtasib lavozimiga tayinlash davlat rahbari yoki hokimiyat organlari tomonidan amalga oshirilgan.

Muhtasibning vazifalari to‘g‘risida Sharqning buyuk allomasi va davlat arbobi Nizomulmulk o‘zining Siyosatnoma (Siyar ul-muluk) asarida ham ma’lumotlar keltirib o‘tadi. Asarda “Har bir shaharda tarozi va narhlarni tartib soladigan, oldi soti ishlarini biladigan eng olim va dono kishildan muhtasib qo‘yish kerak. Va atrofdan olib kelib sotiladigan har bir molnibozorda sotish uchun va haridorlarni aldamaslik uchun ular ustidan nazorat bo‘lishi shart. Tarozi toshlarini to‘g‘ri tutib, amri ma‘ruf va nahyi munkar qilishlari lozim. Podshoh va uning hizmatkorlari muhtasibni qo‘llab-quvvatlashlari kerak”-deb ta’kidlab o‘tadi [12].

Bu lavozim islom huquqida muhim hisoblanib, Markaziy Osiyo davlatchiligidagi Rossiya imperiyasi bosqini davriga qadar amalda bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, Markaziy Osiyo davlatchiligidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri prokuratura terminidan foydalangan holda lavozim joriy qilinmagan bo‘lsada, davlat boshqaruvida doimiy mavjud tartib-qoidalar va qonunlarni nazorat qilib turuvchi maxsus lavozimlar joriy qilingan.

Prokuratura tizimini alohida institut sifatida shakllanishi va bu atamaning aynan qo‘llanishi Rossiya imperiyasi tomonidan Markaziy Osiyo hududlarini bosib olinishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Ma’lumki, prokuratura tizimi Rossiyada 1722 yilda Pyotr I tomonidan asos solingen bo‘lib [13], keyinchalik imperiya tomonidan Turkiston o‘lkalari bosib olingandang so‘ng joriy qilingan.

Bu o‘z navbatida O‘zbekistonda prokuratura organlari faoliyatini tashkil etilishi, faoliyatining tarixiy bosqichlarini kengroq tahlil qilishni muhim ahamiyatga ega ekanligigidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 7 yanvarda Prokuratura organlari xodimlari kuni oldidan bir guruh soha xodimlari bilan uchrashuvdagi nutqi. <https://kun.uz/12889633>.
2. Topildiyev V.R. Rim huquqi. -Toshkent: Yangi asr avlod, 2013. 263 bet
3. Topildiyev V.R. Rim huquqi. -Toshkent: Yangi asr avlod, 2013. 263 bet
4. O’sha manba.
5. O’sha manba.
6. Bahodirov M. “Prokuratura organlarining kelib chiqishi tarixi va huquqiy asoslarning o‘ziga xos xususiyatlari” Образование наука и инновационные идеи в мире. Jurnal № 24–3-son . 2023. B-87-96.
7. Коробейников Б.В., Басков В.И.. Курс прокурорского надзора. Учебник для студентов юридических вузов и факультетов с приложением нормативных актов. - М.: Издательство “Зерцало”, 2000. С -22.; SH.M.Bobodo-stov. Prokuratura organlari faoliyatining konstitutsiyaviy huquqiy asoslarini takomillashtirishning dolzarb masalalari: milliy va xorijiy tajriba. Huquqiy tadqiqotlar jurnalı. №-1. 2022. B-31.
8. Azizov N.P.va boshqalar. Davlat va huquq tarixi. Toshkent.- O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi. 2019. B-20.
9. Nizomulmulk. Siyosatnoma. (Siyar ul-muluk). Ikkinchisi to‘ldirilgan, qayta ishlangan nashri. – Toshkent.: “Yangi asr avlod”. 2008. B-45.
10. Mo‘minova O. o‘zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tarkibi. Toshkent. “Aloqachi”. 2009. B-36.
11. Holiqova R. XIX asrda Buxoro amirligi. Jamiat boqaruv/ 2000. №3.B-70. ; N.P.Azizov va boshqalar. Davlat va huquq tarixi. Toshkent.- O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi. 2019. B-76.
12. Nizomulmulk. Siyosatnoma. (Siyar ul-muluk). Ikkinchisi to‘ldirilgan, qayta ishlangan nashri. – Toshkent.: “Yangi asr avlod”. 2008. B-47.
13. Ерёмин А.В. История отечественной прокуратуры: Учебное пособие / А. В. Ерёмин. — Санкт-Петербург : Санкт-Петербургский юридический институт (филиал) Университета прокуратуры Российской Федерации, 2018. С-15-16.



Sitora MAVLANOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

E-mail: mavlanovasitora247@gmail.com

T.f.f.d., dotsent A.Insopov taqrizi asosida

PRACTICAL RESTORATION OF MATERIAL AND CULTURAL CULTIVATION IN UZBEKISTAN

Annotation

In the first years of our independence, the works carried out in the republic in the field of restoration of material and cultural heritage, the laws and decisions adopted as a normative-legal basis for this, and the activities carried out in the restoration and preservation of historical cities and monuments are presented in this article. Our country has an ancient and rich history, which, along with the general historical process of cultural development, reflects the characteristics and laws of our country's past. Ancient settlements preserved on the territory of our country serve as an important factor ensuring historical-cultural consistency and traditionality.

Key words: Material and cultural heritage, non-governmental non-commercial organization, value, historical object, monumental art, UN, UNESCO, OCIS.

ПРАКТИКА РЕСТАВРАЦИИ МАТЕРИАЛЬНОГО И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В первые годы нашей независимости проведенные в республике работы в области реставрации материального и культурного наследия, принятые в качестве нормативно-правовой основы для этого законы и постановления, проводимая деятельность по восстановлению и сохранению исторических городов и памятников представлены в этой статье. Наша страна имеет древнюю и богатую историю, которая наряду с общеисторическим процессом культурного развития отражает особенности и закономерности прошлого нашей страны. Древние поселения, сохранившиеся на территории нашей страны, служат важным фактором, обеспечивающим историко-культурную целостность и традиционность.

Ключевые слова: Материальное и культурное наследие, неправительственная некоммерческая организация, ценность, исторический объект, монументальное искусство, ООН, ЮНЕСКО, OCIS.

O'ZBEKISTONDA MODDIY VA MADANIY MEROSNI TIKLASH AMALIYOTI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqillikning ilk yillarda moddiy va madaniy merosni tiklash borasida respublikada amalga oshirilgan ishlar, bu bo'yicha me'yoriy-huquqiy asos sifatida qabul qilingan qonun va qarorlar, tarixiy shaxarlar va obidalarni qayta tiklash va saqlash borasida olib borilgan faoliyat haqida tahlili ma'lumotlar keltirilgan. O'zbekiston qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, unda madaniy rivojlanishga doir umumtarixiy jarayon bilan birga, xalqning o'tmishiga xos xususiyatlari va qonuniyatlar o'z aksini topgan. Respublika hududida saqlanib qolgan qadimiy maskanlar tarixiy-madaniy izchillikni va an'anaviylikni ta'minlovchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Moddiy va madaniy meros, nodavlat notijorat tashkilot, qadriyat, tarixiy obyekt, monumental san'at, BMT, YUNESKO, OCIS.

Kirish. O'zbekiston o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach jamiyat hayotining barcha sohalari kabi moddiy va madaniy merosni tiklash, milliy ma'naviy qadriyatlarni saqlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini uning ma'naviy va madaniy rivojisisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish ham davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalişlaridan biridir" [1] – deb ta'kidlab o'tgani masalaning dolzarb ekanligining dalolatidir.

O'tish davrida tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlash borasida zarur bo'lgan davr xisoblanadi. Shu bilan birgalikda bu davr muayyan murakkabliklarga ega bo'lganligi hamda o'ziga xos jihat davlat va jamiyat tomonidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishni ham taqazo etdi. Moddiy va madaniy merosni saqlash, qadriytalarni qayta tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan va mustaqillikning ilk yillardan

boshlab milliy qadriyatlar va xalqning urf-odaylarini inobatga olgan holda mayjud shart-sharoit va mukammal qonunchilik ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. O'zbekiston qadimiy va boy tarixga ega hudud bo'lib, uning milliy madaniyati, jozibali san'ati, mumtoz adabiyoti, ma'naviy qadriyatları, udum va an'anaları butun olamga mashhurdır. Buyuk ajododdardan yetib kelgan moddiy-ma'naviy merosni avaylab asrash muhim vazifadir. Chunki mustaqillikni mustahkamlashning yana bir muhim asosi ma'naviy asosdir. Istiqlol o'zbek xalqi tarixiy taqdirida yangi istiqbollar ochdi. Mustaqillik tufayli o'zbek xalqi o'zining o'tmishda yaratgan juda boy va xilma hil moddiy-madaniy merosini tiklash, ma'naviy qadriyatlarini xalqqa qaytarish, yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Avvalo qadriyat deganda nimani tushunmoq kerak. Qadriyat - bu madaniyat fakti bo'lib, u o'z mohiyat e'tibori bilan ijtimoiyidir. Mustaqillik yillarda yaratilgan falsafa fani bo'yicha darsliklarda, jumladan, E.Yusupovning umumiyl tahriri ostida tayyorlangan "Falsafa" (o'quv qo'llanma) kitobi, J.To'lenov,

Z. G'ofurov qalamiga mansub "Falsaфа" darsligida "qadriyatlar" tushunchasi va uning mohiyati keng olib berilgan. Masalan E.Yusupov o'z kitobida "Umuman olganda, qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakillangan va rivojlangan. O'tmishta, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobji ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy, ma'naviy boyliklar"[2]- ekanligini ta'kidlab o'tadi. O'tish davrida tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlash borasida davlat tomonidan olib borilgan ishlar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganib borilmoqda. Bu masalada A.A.Insopov o'zining tadqiqotlarda tarixiy madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlashda davlat va nodavlat tashkilotlarning ijtimoiy sherkligi masalasiga ham o'z e'tiborini qaratib o'tgan. Bilamizki, mustaqillikning ilk yillari tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash, ularni asrab-avaylash masalasi nafaqat davlatning oldida turgan asosiy vazifa bo'libgina qolmay, davlatqa qarashli bo'lmagan nodavlat notijorat tashkilotlarning ham bu sohada faoliygini talab qildi. O'z navbatida o'tish davrining eng qiyin bosqichlarida bu kabi tashkilotlarga katta ehtiyoj ham borligi ayni haqiqatdir. Bu borada ko'plab nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, "Bobur", "Oltin meros", "Amir Temur" halqaro hayriya jamg'armalari va boshqalarni ko'rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mustaqillikning ilk yillardanoq respublikada ilm-fan, madaniyat, xalq ta'limi, adabiyot va san'atni rivojlantirish, tarixiy obidalarni ta'mirlash, asliga qaytarish, moddiy va madaniy merosni tiklash asosiy vazifalar qatoridan o'rinni oldi. Buning uchun zarur instutsiyal hamda tashkiliy-huquqiy poydevor yaratishga muhim ahamiyat berildi. Buning natijasi sifatida, bosh qomusda fuqorolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburligi, madaniyat yodgorliklari davlat muxofazasida ekanligi o'z ifodasini topdi. Shuningdek, 1998-yil 29-avgustdag'i "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"gi va 2001-yil 30-avgustdag'i "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi, arxiv hujjatlari bilan ishlashni tashkil qilish va bu sohani rivojlnitish uchun "Arxiv ishi to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari sohadagi mayjud muammolarni bartaraf etish va huquqiy jihatdan amalga oshiradigan ishlarni tartibli amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi[3]. Shu bilan birga, "Muzeylar to'g'risida"[4], 2010-yil 7-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniyt meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi [5] qabul qilingan qaror ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Tahsil va natijalar. Respublikada olib borilgan keng miqiyosdag'i milliy qonunchilikdagi aynan bu sohaga e'tibor qaratilishi natijasida sobiq ittifoq davrida ayanchli ahvolda qolgan ko'plab tarixiy-madaniy qadriyatlar, yodgorliklar va boy ma'naviy me'rosz qayta tiklana boshlandi, muqaddas qadamjolar obod etildi. Bu boradagi ishlarda nafaqat davlat balki nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan ham keng muhofaza qilina boshlanganligi, birinchidan, davlatning olib borayotgan siyosatida qonunlarning ishlab chiqilganligi va sohaga to'g'ri yo'naltirilganligi natijasi bo'lsa, ikkinchidan tarixiy qadriyatlarni qayta tiklashda nodavlat-notijorat tashkilotlariga keng yo'l oshib berilishi bilan ham bevosita aloqadordir[6].

O'tish davri milliy-madaniy meros, qadriyatlarni qaytarish hamda tiklashda davlat tomonidan tegishli choratadbirlar amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatining yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrda

respublikamizda 7216 ta madaniyat va tarix yodgorliklari xisobga olingan bo'lib, ularning 1595 tasi me'morchiлик yodgorliklari, 3106 tasi monumental san'at asarlari, 2515 tasi arxeologiya yodgorliklari edi[7]. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi tomonidan "Madaniyat yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash va loyihalash ishlarning narxlarini belgilash xususida" buyruqi asosida muhim vazifalar belgilandi. Respublikada moddiy-madaniy merosni tiklash, yodgorliklarni ta'mirlash, konservatsiyalash, ilmiy loyihalar va loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash ishlari uchun yangi yo'riqnomalar ishlab chiqish vazifasi ham qo'yildi.

Mustaqillikning ilk yillarda moddiy va madaniy merosni muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo'yicha "Meror" nomli Davlat dasturi ishlab chiqildi hamda xalqaro maydonda xorijiy davlatlar bilan integratsiyalashgan holda xalqaro tashkilotlar bilan ham hamkorlik faoliyai yo'lga qo'yildi. 1993-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), YUNESKO va jahon turizim tashkilotlari qo'shma mississasi madaniy merosimizni asrash va tiklash borasida amaliy yordam ko'rsatdi. 1992-1993 yillarda Samarqand markazini qayta tiklash loyihasi uchun "Og'axon" jamg'armasi va Oksford Islom tadqiqotlari markazi "Imom Buxoriy me'moriy majmuasini tiklash" bo'yicha ko'rlik tanlovlari o'tkazildi. Oksford islom tadqiqotlari markazi (OCIS) 1985-yilda tashkil etilgan bo'lib Angliyaning Oksford shahrida joylashgan islom va musulmon jamiyatlarini ilg'or o'rganish markazi va ta'lim xayriya tashkiloti hisoblanadi [8].

Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratilsa, moddiy va madaniy merosni tiklash va ta'mirlash ishlari uchun davlat budgeti hisobidan 1994-yilning o'zidagi davlat budgetidan 24,4 million so'm ajratilgan. Shuningdek, hukumatning maxsus qarori bilan Mirzo Ulug'bek xotirasini tiklash va u bilan bilan bog'liq bo'lgan obidalarni tiklash va ta'mirlash borasida 12,2 million so'mlik ishlar bajarildi. 1995-yildagi qaror bo'yicha esa belgilangan 22 ta yubiley obyektlarida bajarilgan ta'mirlash va tiklash ishlarning hajmi 157,65 million so'mni tashkil etdi. Shu jumladan Samarqanddagi Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shoxi Zinda, Registon majmualari va boshqa obyektlarda 43,25 million so'mlik, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrining Dorus-Saodat, Dorud-Tilovat, Oqsaroy arki, Chubin madrasasi, Qal'a devarida va Qarshi shahridagi Ko'k Gumbaz masjidi, qadimgi ko'priq va hammom, Qilichboy madrasasida 64,75 million so'mlik, Surxonaryo viloyati Termiz shahridagi Sulton Saodat me'moriy majmuasida 14 million so'mlik ta'mirlash va tiklash ishlari, "o'zbek ta'mirshunoslik" institutida 10,82 million so'mlik me'moriy bezaklarni ilmiy ta'mirlash ishlari bajarildi[9].

O'tish davri moddiy va madaniy merosni tiklash amaliyoti asosan ikki bosqichda amalga oshirilganini ko'rish mumkin. Birinchi bosqich 1995-1996 yillarda, ikkinchi bosqich 1997-2000 yillarni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda Shahrisabz, Qarshi shaharlarini va ularning atrofidagi me'moriy obidalar - Oqsaroy arki, Dorus-Saodat, Dorut-Tilovat me'moriy majmuasi, Qarshi Ko'k Gumbaz masjidida ta'mirlash ishlari olib borildi. Samarqandda Go'ri Amr maqbarasi, Bibixonim masjidi, Registon maydoni obidalari, Shoxi Zinda me'moriy majmusini ta'mirlash ishlari davom ettildi. Toshkent, Buxoro, Xiva, Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlarida joylashgan Temur va temuriylar bilan bog'liq qadamjolar reja asosida ta'mirlanib tiklandi. Tahliliy ma'lumotlarga e'tibor qaratilsa, birinchi bosqichdagi tadbirlarni amalga oshirish 1995-yil fevral oyidagi hisobotlar bo'yicha 240 million 595 ming so'm mablag' ajratildi. Ikinchi bosqichda (1997-2000 yillarda) esa yubiley o'tkazish bilan bog'liq ishlarning asosiy qismi bajarildi. Yirik me'moriy majmualar, obidalar o'z davri haqida ma'lum tasavvur beradigan holga keltirildi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun 311 million 560 ming so'm mablag' va moddiy-teknikaviy

resurslar ajratildi[10]. Shuningdek, kutubxonalarda ham tariximizga oid adabiyotlar ko'rgazmalari tashkil qilindi, bu boradagi adabiyotlar fondi yangilandi va to'ldiriladi.

Respublika tarixi va madaniyatiga oid merosni saqlash hamda ulardan tarbiyaviy ishda foydalanish borasida muzeylarda ham bir qator foydali tadbirlar amalga oshirildi. 1997-yilda ekspozitsiya maydoni 50 ming metr kvadrat bo'lgan 60 ta turli yo'nalishdagi muzeylar faoliyat yuritdi. Bu vaqtida muzeylarga qatnash yiliga o'rtacha 5 million kishini tashkil qildi. Ularning fondi esa 2,5 milliondan ortiq eksponatni uz ichiga oldi. Ekspozitsiya maydoni 35 ming metr kvadrat va fondi 250 ming ko'rgazmaga ega bo'lgan 400 ga yaqin jamoat muzeylari ham faoliyat yuritdi. Ularga yiliga 1 milliondan ortiq kishi tashrif buyurdi[11]. Respublika mustaqillikka erishgan vaqtidan boshlab 1996-yilgacha 10 ming donadan ziyod turli moddiy-madaniy ashyolar muzeylarga qaytarildi. 1991-1996 yillarda mobaynida noqonuniyo'llar bilan mamlakat hududidan chet ellarga olib chiqib ketishga urinishlar vaqtida chegarachi va bojxona xodimlari tomonidan ushlab qolning nodir eksponatlar asosan, XIX-XX asrlarga mansub xalq amaliy san'ati namunalari, tarixiy ashyolar, uy-ro'zg'or buyumlaridan iborat edi. Bu buyumlar Davlat san'at muzeiyiga qaytarildi va mustaqillikning 5 yilligiga bag'ishlangan "Qaytarilgan boyliklar" ko'rgazmasi tashkil etildi.

Xulosa va takliflar. Mustaqillik o'zbek xalqining moddiy va madaniy merosini tiklash, o'tmish allomalarini xotirasini yodga olish va yubiley sanalarini nishonlashga keng yo'l ochib berdi. Milliy ma'naviy qadriyatlarini, an'analarni tiklash va keng targ'ib qilishga, yosh avlodni vatanparvarlik va milliy iftixor g'oyalari ruxida tarbiyalashga, haqqoniy tarixni yuzaga chiqarishga imkon berdi. Chunki o'lka hududidan topilgan tarixiy joylar, manzilohlar, moddiy va ma'naviy ashyolar o'sha zamon kishilar tafakkuri natijasini ham aks ettirib turadi.

O'zbek xalqi o'zining o'tmishda yaratgan juda boy va xilma hil moddiy-madaniy merosini tiklash, ma'naviy qadriyatlarini xalqqa qaytarish, yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shuningdek, buyuk shonli tarixdan hozirga qadar yetib kelgan tarixiy-madaniy merosimizning durdonalaridan asl holida bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ldilar. Bugungi kunda respublikada tarixiy-madaniy qadriyatlarini tiklash va saqlash amaliyoti amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda yo'lga qo'yilgan bo'lib, doimiy ravishda davlat nazorati ostida va e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Bu borada amaliy ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida nafaqat davlat, balki davlatga qarashli bo'lmagan nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlarni vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so'zi, 2016, 19 oktabr.
2. E.Yusupov. "Falsafa" (O'quv qo'llanma). toshkent, "Sharq", 1999, 323-bet.
3. Insopov A.A. O'zbekistonda fuqorolik jamiyatini barpo etishda davlat va nodavlat tashkilotlar ijtimoiy sherikligi (1991-2016 yy.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy daraja olish uchun yozilgan diss. - Toshkent, 2021. -157 b.
4. "Muzeylar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi 2010.10.07. Qarori. <http://lex.uz>.
5. "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniyt meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2010.10.07. <http://lex.uz>.
6. Insopov A.A. O'zbekistonda tarixiy madaniy qadriyatlarini tiklashda davlat siyosati. // Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallari to'plami / Arxivlar va moddiy-madaniy meros obyektlari: integratsiya jarayonlari, muammolar va ularning yechimlari. -Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxiv, 2017. -19 b.
7. Tojiboyev M.T. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida milliy ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi va rivojlanishi. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. - Toshkent, 2001. -166 b.
8. <https://www.ocxis.ac.uk/>
9. Amir Temur tavalludining 660 yilligi yubileyiga bag'ishlangan tayyorgarlik ishlarni bajarilishining borishi haqida axborot. 1996.04.9. 01.10-104.
10. Tojiboyev M.T. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida milliy ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi va rivojlanishi: Avtoref.diss.tarix fan. nom. -Toshkent, 2000. -43 b.
11. Habibullayeva D.A. O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining qayta tiklanishi (1985-1994 yillar). Tarix fanlari nomzodi ilmiy unvonini olish uchun yozilgan diss. - Toshkent, 1995. -139 b.



Baxtiyor RAXIMOV,
Qarshi shahridagi Prezident maktabi o'qituvchisi

PhD, dotsent B.Narmanov taqrizi asosida

ESTABLISHMENT OF FOREIGN COOPERATION RELATIONS IN TEXTILE INDUSTRY OF KASHKADARYA REGION

Annotation

This article presents the facts about the achievements made as a result of the establishment of foreign cooperation in the textile industry of Kashkadarya region during the years of independence, and the fact that an important contribution was made to the economic development of the country through the increase in the export volume of the oasis. There are also opinions that the role of external relations is important in the organization of competitive enterprises in the oasis.

Key words: Kashkadarya, textiles, cotton industry, foreign cooperation, "Kashteks", export, textile machines, fairs.

УСТАНОВЛЕНИЕ ОТНОШЕНИЙ ВНЕШНЕГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Annotation

В данной статье представлены факты о достижениях, достигнутых в результате налаживания зарубежной кооперации в текстильной промышленности Кашкадарьинской области за годы независимости, а также о том, что был внесен важный вклад в экономическое развитие страны за счет увеличения в объеме экспорта оазиса. Существуют также мнения, что роль внешних связей важна в организации конкурентоспособных предприятий в оазисе.

Ключевые слова: Кашкадарья, текстильная, хлопковая промышленность, внешнеэкономическая кооперация, "Каштекс", экспорт, текстильные машины, ярмарки.

QASHQADARYO VILOYATI TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJUY HAMKORLIK ALOQALARINING YO'LGA QO'YILISHI

Annotation

Mazkur maqolada istiqlol yillarda Qashqadaryo viloyati to'qimachilik sanoatida xorijiy hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi natijasida qo'lga kiritilgan yutuqlar, vohada eksport hajmining ortishi orqali mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga muhim hissa qo'shilganligi haqida faktlar keltirilgan. Shuningdek vohada raqobatbardosh korxonalarni tashkil etishda tashqi aloqalarning o'rni muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo, to'qimachilik, paxta sanoati, xorijiy hamkorlik, "Qashteks", eksport, tekstil dastgohlari, yarmarkalar.

Qashqadaryo O'zbekiston Respublikasining eng qadimi tarixga, o'ziga xos madaniyatiga ega, tabiiy boyliklari ko'pligi bilan ajralib turadigan, bugun har tomonlama rivojlanayotgan viloyatlaridan biri hisoblanadi. Viloyatning to'qimachilik sanoatida xorijiy hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi tarixini o'rganish bugungi kunning dolzARB masalalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida tashqi iqtisodiy aloqalarning ahamiyati haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edi: "Hududlarni iqtisodiy taraqqiy ettirishning strategik yo'nalishlaridan biri – mamlakatning har bir tumanida investitsiyalar kiritish uchun jozibali muhit shakllantirish va eksportni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Negaki, hozirgi kunda yurtimizning qaysi hududini olmaylik, ularning barchasida iqtisodiy jihatdan yuksalish borasida katta imkoniyatlar mavjud ekanini ko'ramiz"[2].

Voha yer maydonining 23,8% i yoki 679,2 ming hektarini suvli maydonlar tashkil etadi. Viloyat respublikamizda paxta vag'alla yetishtirishda yetakchi hisoblanadi. Mamlakatda yetishtirilayotgan paxta xomashyosining 13 foizi Qashqadaryo viloyati hissasiga to'g'ri keladi[3].

Sobiq Ittifoq davrida viloyatda yetishtirilgan paxta mahsulotiga hududning o'zida faqatgina birlamchi ishllov berilar edi. Hududga kerakli trikotaj mahsulotlari boshqa

mintaqalardan keltirilar edi. Bu esa viloyat aholisini trikotaj mahsulotlari, kiyim-kechaklar bilan ta'minlanishida ko'plab noqulayliklar va muammolarga sabab bo'lgan. Shuningdek mavjud iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanish imkoniyatini pasaytirgan.

Mustaqillik yillarda viloyatda to'qimachilik sanoatining jadal rivojlantirilishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga muhim hissa qo'shishi mumkinligi ko'zdautilgan holda ko'plab o'zgarishlar amalga oshirilishi maqsad qilib belgilandi. Chunki mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida to'qimachilik sanoatining hissasi yildan-yilga ortib bormoqda. Juhon bozorlarida to'qimachilik sanoati mahsulotlari bilan o'z o'rnimizga ega bo'lishda boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilish eng muhim jihatlardan biridir. Istiqoldan keyin Qashqadaryo paxta tolasi jahoning ko'plab mamlakatlariga to'g'ridan-to'g'ri eksport qilina boshladi. Xususan, 1991-yilda vohada joylashgan Beshkent paxta tozalash zavodi ishchi-xizmatchilari yangi paxta hosilidan tayyorlangan 450 tonnadan ortiq yuqori sifatli tolani Avstriya, Niderlandiya va Shveysariya mamlakatlariga eksport qilganlar[6]. Bu esa istiqolning dastlabki kunlaridan xorijiy hamkorlikni samaralitashkil etilishga harakat qilina boshlaganligini bildiradi.

"Qashqadaryodavlatpaxtasanoatotish" hissadorlik birlashmasiga qarashli korxonalar 1997-yil 7-noyabr holatiga ko'ra 1997-yil hosilidan olingen tolaning 30725 tonnasini

sotishgan. Qashqadaryo tolasining xaridorlari orasida Shveysariyaning “Paul Reynbard”, “Uzdon”, Niderlandiyaning “Gdinkor”, Janubiy Koreyaning “LEU”, Rossiya Federatsiyasining “Konteks”, Germaniyaning “Ay Siti”, Xitoyning “SUAR” nomli mashhur firmalari bor edi[17]. Shuningdek, viloyatdagi mavjud paxta tozalash zavodlarining faoliyatini jahon andozalariga moslashtirish maqsadida ham xorijiy hamkorlar bilan aloqalar yo‘lga qo‘yildi. 1997-yil aprel oyida AQSHning “Donovant Interpraysiz Ink” kompaniyasi vakillari paxta tozalash sanoatini rivojlanтирisha hamkorlik qilish uchun Qashqadaryo viloyatida bo‘lishdi. Dunyoning 8 davlatida 80 dan ortiq paxta tozalash zavodlarini qurgan bu kompaniya O‘zbekistonda 10 yildan ortiq vaqt davomida faoliyat olib borayotgan edi. Kompaniya prezidenti Uilyam Bill Donovant rahbarligidagi mutaxassislar viloyat hokimi Ozod Parmonov hamrohligida Qarshi tumanidagi Yaxshi Omonov nomli xo‘jalikda, Nishon va Koson tumanlaridagi 1-paxta tozalash zavodlarida bo‘lishdi[9]. Mazkur faktlar shuni ko‘rsatadiki, vaqt o‘tgani sayin Qashqadaryo paxtasi jahon paxta bozorida o‘z xaridorlariga ega bo‘la boshladi. Endilikda hududda paxtadan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish orqali to‘qimachilik sanoatini yuksaltirish uchun amaliy harakatlar boshlandi.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o‘tishda jahon bozori talablariga javob beradigan mahsulotlarni ishlab chiqarish talab etildi. Viloyatda ana shu sohada ilk qadam 1993-yil bahorida qo‘yildi. Yiliga 25 ming tonna ipak paxtani qayta ishlab jahon andozalariga javob beradigan tayyor kiyim-kechaklar ishlab chiqaradigan bu korxonani Qarshi shahrida bir yil ichida barpo etish yuzasidan Turkiya-O‘zbekiston shartnomasi imzolangan. Mazkur korxonani barpo etish uchun Qarshi shahri yaqinidagi Qavali qishlog‘i hududida 15 gektar joy ajratildi. 1993-yil 15-mart kuni korxona poydevoriga dastlabki g‘isht qo‘yildi. Tantanada Turkiyaning “Yazeks” korporatsiyasi vitse-prezidenti Ahmad Yurakli qatnashdi. Bu qurilish kompleksining umumiyo‘loyiha qiymati 28 mln AQSH dollarini tashkil etgan. Uning loyihasini Turkijaning “Yazeks” korporatsiyasi bilan “O‘zmejkolxozistroy”ning Qarshidagi loyihalash muhandislari hamkorlikda tayyorlaga[7]. “Qashteks” aksionerlik jamiyatining nizom jamg‘armasi 35 mln so‘m qilib belgilangan edi. Bu korxona 1994-yil 2-avgust kuni viloyat Adliya boshqarmasidan 142-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Hissadorlik jamiyatining ta’sischilarini etib 123 ta qishloq xo‘jaligi korxonalarini va Kasbi tumanidagi 4-hunar texnika bilim yurti belgilandi[13]. Kompleksning ishlab chiqarish tsexdarligiga Turkiya, Italiya, Germaniyadan eng zamонавиј uskunalar olib kelib o‘rnatalishi maqsad qilingan edi. Tola ajratish tsexdida Turkijaning “Yazeks” firmasi ishlab chiqargan 50 ta “Sumer” markali mashinalari, presslash tsexdida Germaniya dastgohlari, ip-yigiruv tsexdida Italiyaning “Savio”, Shveysariyaning “Riter” firmalarining dastgohlari, to‘quv sexida Italiyaning “Somet” firmasidan keltirilgan 35 ta dastgoh o‘rnatalishi rejallashtirildi. Tikuv, bichish, dazmol bosish mashinalari Italiyaning “Remoldi” va “Neson” firmalarining, buyash sexida Italiyaning “Savit”, Turkijaning “Izmir” firmalaridan keltirilgan mashinalardan foydalanish belgilandi. Dastgohlar chet ellik mutaxassislar o‘rnatalishi va mahalliy ishchilarga foydalanishi o‘rgatish ham ko‘zlangan asosiy vazifalardan edi. Natijada hududdagi mahalliy aholi vakillaridan 2500 kishi ish bilan ta’minlanar edi[7]. Mazkur to‘qimachilik kompleksining ishga tushirilishi hududdagi ishsizlik muammosini bartaraf qilish uchun muhim yechimlardan biriga aylandi. Viloyat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ham muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

“Qashteks” to‘qimachilik majmuasi qurilishini tugallash maqsadida 1996-yil 20-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Anteks”, “Qashteks”, “Quva” va “Gurlan” to‘qimachilik komplekslarini ishga

tushirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori chiqarildi. Mazkur qarorda “Qashteks” to‘qimachilik kompleksi qurilishini tugallash va asbob-uskunalar uchun 229,8 mln so‘m miqdorida uzoq muddatli tijorat kreditini ajratish haqida ko‘rsatma berildi. Shuningdek mazkur qarorda bu to‘qimachilik kompleksini 1996-yilning ikkinchi choragidayoq ishga tushirish lozimligi ham belgilanib qo‘yilgan edi[1]. To‘qimachilik majmuasi iqtisodiy muammolar tufayli begilangan muddatdan keyin bo‘lsada o‘z faoliyatini boshladi.

1996-yil 10-dekabrda Qarshi shahrida Turkiyaning “Yazeks” firmasi bilan hamkorlikda “Qashteks” to‘qimachilik majmuvi ochildi[8]. “Qashteks” ochiq hissadorlik jamiyatining ishga tushirilgandan so‘ng dastlabki 6 oyda 855 tonna paxta tolasini qayta ishlab 583 tonna kalava ip, 201 tonna trikotaj matosi, 800 ming pogonometr xom gazlama, 300 ming donadan ortiq tayyor trikotaj mahsuloti ishlab chiqarildi. Shundan 200 turdag'i tayyor mahsulotlar ishlab chiqarildi. Bu mahsulotlarni valyutaga aylantirilganda 149 mln so‘mlik kalava ip, 89 mln so‘mlik trikotaj mato, 76 mln so‘mlik ip-gazlama ishlab chiqarildi. 26 mln so‘mlik tayyor trikotaj mahsuloti 200 ming AQSH dollariga chetga va ichki bozorga sotildi. Lekin shunga qaramasdan 150 mln so‘mlik yarim tayyor mahsulotlar omborxonalarda turib qoldi. Buning birinchi sababi chet ellik mutaxassislarining o‘z vaqtida kelib mashina va uskunalarini ishga tushirmaganligi bo‘lsa, ikkinchi sababi kombinatning aylanma mablag‘i yo‘qligi edi[4]. Mavjud muammolarga qaramasdan “Qashteks” to‘qimachilik majmuasi o‘z faoliyatini yanada kuchaytirish, ichki va tashqi bozorlarda o‘z o‘rnini mustahkam egallash uchun islohotlarni amalga oshira boshladi. 1997-yilda “Qashteks” hissadorlik jamiyatini va Shveysariyaning “Vest Ist Finans” firmasi o‘rtasida ustav fondi kamida 300 ming AQSH dollarini tashkil etadigan qo‘shma korxona tuzish to‘g‘risida shartnomasi imzolandi[10]. 1998-yil yanvar-mart oylarida “Qashteks” hissadorlik jamiyatini tomonidan Vengriyaga umumiyo‘li qiymati 54 ming AQSH dollariga teng bo‘lgan mahsulotlar yetkazib berildi. Italiyaning “Karrera” firmasi bilan 2,5 mln AQSH dollariga teng bo‘lgan turli mahsulotlar yetkazib berish yuzasidan shartnomalar imzolangan[12]. 1999-yilda “Qashteks” hissadorlik jamiyatini Qozog‘iston Respublikasida qo‘shma korxona sifatida savdo uyini ochdi. U o‘zining birinchi partiya tovarlarini 12,3 ming AQSH dollariga sotdi[5]. 2000-yil avgust oyida Germaniyaning Kyoln shahrida to‘rt kun davom etgan “Interjeans-2000” yarmarkasida “Kashteks”da erkaklar, bolalar sport kiyimlari, “Sanam”da ishlab chiqarilgan erkaklar ko‘ylagi va sport kiyimlaridan namunalar namoyish etildi. Yarmarka davomida Germaniya, Gollandiya, Avstriya, Koreya Respublikasi, Polsha, Chexiya, Kanada davlatlari vakillaridan “Sanam” fabrikasiga 16 ta, “Qashteks” to‘qimachilik kompleksiga 12 ta taklif tushdi[14]. Bu faktlar shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik majmuasi ishga tushirilgan kundan boshlab mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti uchun o‘z hissasini qo‘sha boshladi. Xorijiy mamlakatlarga o‘z mahsulotlarini eksport qilish orqali jahon to‘qimachilik sanoatida o‘z o‘rniga ega bo‘lishga harakat qildi.

XXI asr boshlarida “Qashteks” aksionerlik jamiyatini tashkiliy tuzilmalarida o‘zgarishlar amalga oshirildi. 2004-yil birinchi choragida viloyatda 2 ta qo‘shma korxona davlat ro‘yxatidan o‘tdi. Bu korxonalaridan biri Qarshi shahridagi “Qashteks” aksiyadorlik jamiyatini tomonidan Turkijaning “ATS Aktif tekstil sanaye ve tijaret anonym shirketi” va AQSHning “DYNELEY LLC” kompaniyasi bilan hamkorlikda tuzilgan “Cotton Road” qo‘shma korxonasi edi. Bu korxona paxtani qayta ishlab, ip-kalava, mato va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashtirildi. Yangi qo‘shma korxonaning nizom jamg‘armasi 10,5 mln AQSH dollaridan iborat bo‘lib, xorijiy investorlar ulushi 5,5 mln AQSH dollaridan iborat edi. Mana shu vaqtan boshlab

“Qashteks” aksionerlik jamiyatining mahsulotlari “Cotton Road” brendi ostida ichki va tashqi bozorga chiqarila bushland[15]. “Qashteks” to‘qimachilik kompleksi modernizatsiya jarayonlari orqali o‘z faoliyatini jonlantirish va mahalliy aholini doimiy ish o‘rni bilan ta‘minlashga ham jiddiy e’tibor qaratdi.

2009-yilda Qarshi shahridagi “Cotton-Road” mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi O‘zbekiston-AQSH-Turkiya qo‘shma korxonasining mahsulotlarining asosiy qismi Turkiya, Rossiya Federatsiyasiga eksport qilingan[16]. Qarshi shahridagi “Cotton Road” qo‘shma korxonasi 2014-yilning dastlabki 6 oyida 4 mlrd 647 mln so‘mlik mahsulotni Rossiya Federatsiyasi, Belorus, Litva va Qozog‘iston mamlakatlariga eksport qilgan. 26 tonna kalava ip, 10 ming pogonametr xom to‘quv gazlama, 25000 metr kvadrat tayyor to‘quv gazlama, 130000 dona trikotaj mahsulot, 26 tonna trikotaj polotnosi eksport qilingan. 2013-yilda Shahrisabz va Qarshi shaharlarida korxonaning 2 ta filiali o‘z ishini boshladи. Rossiya, Belorus va Qozog‘iston Respublikalarida savdo uylari mavjud[17]. “Cotton Road” qo‘shma korxonasi eksport geografiyasi Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Belorus, Chexiya, Ukraina va

Litvani qamrab olgan. 2018-yilda 870 ming AQSh dollarri miqdoridagi mahsulot chetga eksport qilingan. 550 ming dona tayyor mahsulot yetkazib berilgan. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini yaxshilash maqsadida Shveysariyaning “Riter” kompaniyasidan lentalovchi, Italiyadan xom ip tayyorlovchi va kalavalovchi dastgohlar xarid qilingan. Ichki va tashqi bozorga 710 ming dona tayyor kiyim va 12000 dona tikuvchilik mahsuloti taklif etilgan[18].

Yuqoridaqilardan shu jihat oydinlashadiki, mustaqillik yillarda vohada to‘qimachilik sanoatining rivojlantirilishida xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi o‘z vaqtida qo‘yilgan muhim qadam bo‘lgan. Viloyatning mamlakat miqyosidagi iqtisodiy imkoniyatini kuchaytirgan.Ishsizlarni doimiy ish o‘rni bilan ta‘minlanishiga yordam bergan. Mahalliy ishchilarни xorijiy texnologiyalardan samarali foydalanish, ular bilan tajrida almashinish imkoniyatiga ega bo‘lishiga ham sabab bo‘lgan. Qashqadaryo viloyatida to‘qimachilik sanoatining zamонави shakllarini barpo etishda “Qashteks” to‘qimachilik kompleksini barpo etishdagi tajriba va g‘oyalalar keyinchalik hududda yangi to‘qimachilik sanoati korxonalariga asos solinishiga qo‘l keldi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (NOMI) 131-soni qarori. 1996-yil 20-mart. //lex.uz.docs.1621851
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2022. – 164 b.
3. Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ma'lumotlar bazasi. – T.: O‘zbekiston. 2016.
4. Qashqadaryo viloyati hokimligi arxiv, 829-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 13-yig‘ma jild.
5. Qashqadaryo viloyati hokimligi arxiv, 829-jamg‘arma, 10-ro‘yxat, 29-yig‘ma jild.
6. “Qashqadaryo haqiqati gazetasи”, 1991-yil 14-noyabr, 174-soni.
7. “Qashqadaryo haqiqati” gazetasi, 1995-yil 22-aprel, 33-soni.
8. “Qashqadaryo haqiqati” gazetasi, 1996-yil 11-dekabr, 99-soni.
9. “Qashqadaryo” gazetasi, 1997-yil 16-aprel, 31-soni.
10. “Qashqadaryo” gazetasi. 1997-yil 21-may, 41-soni.
11. “Qashqadaryo” gazetasi, 1997-yil 15-noyabr, 92-soni.
12. “Qashqadaryo gazetasi” 1998-yil 14-mart, 22-soni.
13. “Qashqadaryo” gazetasi, 1999-yil, 30-oktabr, 87-soni.
14. “Qashqadaryo” gazetasi 2000-yil 11-sentabr, 71-soni.
15. Temirov B. “Qo‘shma korxonalar soni 2 taga ko‘paydi”. //”Qashqadaryo” gazetasi 2004-yil 17-aprel, 31-soni.
16. “Qashqadaryo” gazetasi, 2009-yil 14-avgust, 64-soni.
17. “Qashqadaryo” gazetasi, 2014-yil 5-avgust, 92-soni.
18. “Qashqadaryo” gazetasi. 2019-yil 8-fevral. 10-soni.



UDK: 94(575.1)+327(575.1:595) 008(575.1:595)

Ильяс ШАКИРОВ,
Докторант НУУз
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru

На основе рецензии Р. Сиддикова

ВОПРОСЫ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА И ФИЛИППИН

Аннотация

В представленной статье проведен анализ двухсторонних связей Узбекистана и Филиппин в сфере торговли, экономики и инвестиций. Основываясь на архивные материалы, изучена история становления и развития торгово-экономических связей двух стран. В статье автором показана хронология основных событий, повлиявшие на развитие экономических взаимоотношений двух стран, которое характеризовалось организацией официальных визитов и мероприятий торгово-экономического характера.

Ключевые слова: Узбекистан, Филиппины, динамика, торговля, экспорт, импорт, инвестиции.

O'ZBEKISTON VA FILIPPIN SAVDO-IQTISODIY ALOQALARI MASALLARI

Annotatsiya

Taqdim etilgan maqolada O'zbekiston va Filippin o'tasidagi savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy sohalardagi ikki tomonlma munosabatlar tahlil qilinadi. Arxiv materiallari asosida ikki davlat o'tasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning shakllanish va rivojlanish tarixi o'rganildi. Maqolada muallif ikki davlat o'tasidagi iqtisodiy munosabatlar rivojiga ta'sir ko'rsatgan, rasmiy tashriflar va savdo-iqtisodiy xarakterdagi tadbirdarlarning tashkil etilishi bilan ajralib turadigan asosiy voqealar xronologiyasini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Filippin, dinamika, savdo, eksport, import, investitsiyalar.

ISSUES OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS OF UZBEKISTAN AND THE PHILIPPINES

Annotation

The presented article analyzes bilateral relations between Uzbekistan and the Philippines in the fields of trade, economics and investment. Based on archival materials, the history of the formation and development of trade and economic relations between the two countries has been studied. In the article, the author shows the chronology of the main events that influenced the development of economic relations between the two countries, which was characterized by the organization of official visits and events of a trade and economic nature.

Key words: Uzbekistan, Philippines, dynamics, trade, export, import, investment.

Введение. В настоящее время дипломатия Республики Узбекистан приобрела новых и открытый характер, которая характеризуется развитием взаимовыгодных и равноправных отношений со всеми государствами мира. Одним из приоритетных направлений внешней политики Республики Узбекистан также является регион Юго-Восточной Азии, со странами которой, в том числе Филиппинами Узбекистан уже в первые годы установил дипломатические связи, что позволило установить межгосударственные контакты в сфере торговли, экономики и инвестиций.

Анализ литературы по теме. Вопросам дипломатических связей Узбекистана удалено достаточно большое количество научных исследований, включающие в себя диссертационные работы, монографии, научные статьи, которые посвящены изучению внешних связей Узбекистана с государствами Европы, Азии, а также участия Узбекистана в системе международных отношений. Среди отечественных работ, которые посвящены анализу двухсторонних связей Узбекистана и стран Юго-Восточной Азии можно выделить диссертационные исследования Г. Сайдазимовой, Ф. Усарова, Г. Джураевой, С. Усарова, О. Алимардонова, И. Шакирова и С. Толибовой, в которых рассмотрены вопросы многосторонних отношений Узбекистана и стран Юго-Восточной Азии. В этих работах особый акцент сделан на процессы

интеграции, развитие политических, культурно-гуманитарных, а также торгово-экономических связей.

Методы исследования. В представленной научной статье использовались методы диалектики, системного и сравнительного анализа, интерпретации исторических знаний, а также принцип объективности.

Анализ и результаты. После установления дипломатических отношений между Узбекистаном и Филиппинами динамика развития сотрудничества в торгово-экономической сфере являлась отрицательной. Главной причиной этого являлось то, что в 90-е годы XX века основные направления торгово-экономических связей Узбекистана были наложены с другими государствами АСЕАН, в том числе, Вьетнамом, Таиландом и Сингапуром.

Филиппины – развивающаяся аграрно-промышленная страна, ведущими отраслями которой являются текстильная и электронная промышленность. В стране развита фармацевтическая, химическая, деревообрабатывающая пищевая, нефтеперерабатывающая и рыбная промышленность. Добыча нефти не обеспечивает полностью потребности Филиппин, в результате страна вынуждена импортировать 60 % энергоносителей (в основном нефть). Более половины населения страны заняты в сельском хозяйстве. Рис, кукуруза, кокосовая пальма, сахарный тростник,

ананасы, манго, табак, бананы являются основными сельскохозяйственными культурами [1].

В 90-х годах XX века в Узбекистане не были зарегистрированы представительства филиппинских компаний и не имелись совместных предприятий с участием филиппинских компаний. В этот период Узбекистан и Филиппины имели определенный потенциал для развития экономического сотрудничества на основе взаимной выгоды. Одной из ключевых сфер сотрудничества являлось производство текстильной продукции, которое на Филиппинах являлось одним из лидирующих [1].

Первый официальный контакт в торгово-экономической сфере состоялся в 1998 году. В частности, в июне этого года Узбекистан в ходе Генеральной Ассамблеи Международного Бюро по Экспозициям в Париже поддержал кандидатуру Филиппин в качестве места проведения международной выставки ЭКСПО-2002.

	2011 г	2012 г	2013 г	2014 г	2015 г	Январь-ноябрь 2016 г
Торговый оборот	723,1	1415,8	2172,8	34175,1	4763,9	1422,6
Экспорт	536,1	1408,9	1011,0	31391,7	1476,2	529,5
Импорт	187,0	6,9	1161,8	2783,4	3287,7	893,1
Сальдо	349,1	1402,0	-150,8	28608,3	-1811,5	-363,6

Объем экспорта в Республику Филиппины за январь-ноябрь 2016 года составил 529,5 тыс. долл. и уменьшился на 54,1% или на 625,2 тыс. долл. по сравнению с аналогичным периодом 2015 года. Экспорт уменьшился за счет снижение экспорта хлопчатобумажной пряжи в Республику Филиппины на сумму 794,6 тыс. долл. Структура экспорта была представлена услугами – 529,5 тыс. долл. (100%).

Объем импорта из Республики Филиппины за январь-ноябрь 2016 года составил 893,1 тыс. долл. и уменьшился на 2 349,7 тыс. долл. или на 72,5 %. Импорт уменьшился в основном за счет снижения ввоза из Республики Филиппины машин и оборудования на 33,7 % (на 419,9 тыс. долл.) и импорта услуг в 98,3% (на 1 914,7 тыс. долл.). Структура импорта была представлена машинами и оборудованием – 824,6 тыс. долл. (92,3 %), услугами – 33,2 тыс. долл. (3,7%), продовольственными товарами – 23,1 тыс. долл. (2,6%), химической продукцией – 0,1 тыс. долл. (0,01 %) и прочими товарами – 12,0 тыс. долл. (1,3%). В результате за январь-ноябрь 2016 года сложилось отрицательное сальдо в сумме 363,69 тыс. долл. (за аналогичный период 2015 года также сложилась отрицательное сальдо в сумме 2 088,1 тыс. долл.) [3].

В 2016 году состоялся визит посла Республики Филиппин в Республику Узбекистан, в ходе которого стороны обсудили вопросы двусторонних торгово-экономических отношений. На встрече представители двух стран отметили состояние двустороннего торгово-экономического сотрудничества и констатировали несоответствие потенциальным возможностям двух стран в торгово-экономических сферах. В это время Филиппины стремились развивать сотрудничество по таким направлениям, как сельское хозяйство и производство высокотехнологической продукции. Филиппины были заинтересованы в импорте из Узбекистана хлопка и плодоовощной продукции, а также налаживании сотрудничества в автомобильной промышленности. На Филиппинах были очень развиты услуги всемирных контакт-центров, доля которых в ВВП страны составляло 10 % или 12 млрд.дол.США. Установление сотрудничества в этой области оказалось положительное влияние на узбекско-филиппинские взаимодействия в торгово-экономической сфере.

В ноябре 2017 года в Ташкенте состоялась встреча филиппинской делегации с представителями Министерства внешней торговли Республики Узбекистан. На встрече с начальником Департамента по

В результате, это способствовало участию Республики Узбекистан в выставке ЭКСПО – 2002, а также работе с сетями и обмена опытом в сфере прочного развития, а именно, относительно сохранения окружающей среды в туристской деятельности, возможности увеличения экономического присутствия Республики Узбекистан в Филиппинах получению широкого доступа к филиппинскому рынку, являвшимся наиболее свободным в регионе АСЕАН [2].

С начала XXI столетия двусторонние экономические связи Узбекистана и Филиппин стали постепенно развиваться. Так, уже в 2011 – 2016 годах стала наблюдаться положительная динамика развития торгово-экономических отношений. Например, если в 2011 году товарооборот между двумя странами составил 723,1 тысячи долларов США., то в 2016 году 1426000 тысяч долларов США.

	2011 г	2012 г	2013 г	2014 г	2015 г	Январь-ноябрь 2016 г
Торговый оборот	723,1	1415,8	2172,8	34175,1	4763,9	1422,6
Экспорт	536,1	1408,9	1011,0	31391,7	1476,2	529,5
Импорт	187,0	6,9	1161,8	2783,4	3287,7	893,1
Сальдо	349,1	1402,0	-150,8	28608,3	-1811,5	-363,6

сотрудничеству со странами Ближнего Востока и Африки МИД Филиппин Х. Куинтана обсудили состояние и перспективы торгово-экономического сотрудничества между двумя странами. В то время, по мнению Х. Куинтана Филиппины были заинтересованы в установлении прямых контактов представителей деловых кругов двух стран для дальнейшего развития торгово-экономических связей [4].

В 2019 году состоялся визит посла Республики Узбекистан в Филиппины. В рамках переговоров с Президентом Филиппин были обсуждены вопросы торгово-экономического сотрудничества с Узбекистаном. Одной из проблем, препятствовавшая развитию торгово-экономических связей являлось отсутствие выхода к морю у Республики Узбекистан и прямых транспортных коридоров между двумя государствами. На встрече стороны изучили маршруты с использованием различных транспортных путей [5].

На встрече с послом Руководство Филиппин отметило низкий уровень торгово-экономических отношений между странами. В связи с этим Президент Р. Дутерте (2016-2022) инициировал расширение торгово-экономического сотрудничества. В это время, по мнению Президента Филиппин, товарооборот в 3,4 млн дол.США (по итогам 2018 года) не соответствовал имевшемуся на тот период потенциальному двух стран[5].

В 2019 году филиппинской компанией «Liwayway» была начата разработка проекта по производству в Узбекистане экологически чистой продукции под брендами «Oishi» и «Great lake» (соки, сладости, снеки, чипсы и т.д.) на сумму 15 млн.дол.США. Начало разработки данного проекта способствовало участие филиппинских компаний в реализации различных экономических проектов в Узбекистане.

В 2019 году состоялись встречи с руководством филиппино-китайской ассоциации промышленной палаты, филиппинского центра по изучению региональных проблем, издательства газеты "The Philippine Star". Во время переговоров филиппинская сторона отметила, что выделяют Узбекистан в качестве "потенциального транзитно-торгового хаба для экспорта филиппинских товаров в другие страны ЦА".

Важным событием в торгово-экономической сфере стал визит делегации «Liwayway» в Республику Узбекистан в августе 2019 года. На встрече были обсуждены вопросы реализации проекта на территории Кибрайского района Ташкентской области. Следует отметить, что компания владеет 25 заводами в 9 странах

мира, в частности в Китае – 14, во Вьетнаме – 4, на Филиппинах – 1, в Камбодже – 1, в Индонезии – 1, в Таиланде – 1, в Мьянме – 1, в Индии – 1 и в Южной Африке – 1.

Во время визита делегация изучила инвестиционную и экономическую политику Республики Узбекистан, а также выгодное географическое положение Узбекистана. Важным итогом данного визита стало начало производства экологически чистой продукции на территории Кибрайского района Ташкентской области, со стоимостью 15 млн.дол.США[5].

В 2024 году состоялась встреча министра иностранных дел Республики Узбекистан Б. Саидова с делегацией компании «Liwayway» во главе с основателем и председателем совета директоров Карлосом Чаном. На встрече была выражена признательность друзьям с Филиппин за укрепление связей между двумя государствами. На прошедшей встрече стороны обсудили

ключевые направления сотрудничества Узбекистана и Филиппин [6].

Заключение и рекомендации. Подводя итоги двухстороннего сотрудничества Узбекистана и Филиппин в торгово-экономической сфере, можно констатировать то, что взаимоотношения в этой сфере стали развиваться в начале XXI века. Анализ имеющихся источников по данной научной проблеме показывает, что несмотря на имеющиеся установленные дипломатические отношения, связи Узбекистана и Филиппин в сфере экономики, по сравнению с другими государствами Юго-Восточной Азии, не выделялись высоким показателем торговли. Однако в последние годы стала наблюдаться тенденция развития экономических отношений двух стран, о чем, прежде всего, свидетельствует активизация диалога по развитию торгово-экономических отношений Узбекистана и Филиппин.

ЛИТЕРАТУРА

1. АППРУз. Ф. 975. Оп. 26. Д. 156. Лл. 27-31.
2. АППРУз. Ф. 975. Оп. 26. Д. 446. Л. 64, 70.
3. Текущий архив МИД РУз. / Папка. Филиппины 2015+. Л.24.
4. Узбекистан и Филиппины обсудили перспективы торгово-экономического сотрудничества [Электронный ресурс] URL: <https://www.uzdaily.uz/ru/post/35076> (Дата обращения 26.07.2024).
5. Текущий архив МИД РУз. / Папка. Филиппины 2015+. Л.25.
6. Министр иностранных дел Узбекистана принял делегацию филиппинской компании [Электронный ресурс] URL: <https://dunyo.info/ru/Novosti-MID/ministr-inostrannyh-del-uzbekistana-prinjal-delegaciyu-filipinskoy-kompanii> (Дата обращения 25.07.2024).